

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Boshlang‘ich ta’lim va jismoniy
madaniyat fakulteti dekani
prof. B.S. Abdullayeva
“ _____ ” _____ 2014-yil

«Boshlang‘ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish» ta’lim yo‘nalishi

**Mavzu: Boshlang‘ich sinflarda iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan
ishlash**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: IV bosqich “401” guruh talabasi:
Xadjayeva Muqaddas Ilxombayevna
Ilmiy rahbar: “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi
va tarbiyaviy ishlar metodikasi”
kafedrasi, professori, p.f.d. J.G‘.Yo‘ldoshev

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va
tarbiyaviy ishlar metodikasi”
kafedrasi mudiri p.f.n. dotsent
X.R.Sanaqulov _____
“ _____ ” _____ 2014-yil

Toshkent 2014

MUNDARIJA

KIRISH

I-bob. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari.

- 1.1. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlashning pedagogik-psixologik ahamiyati.
- 1.2. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlashning pedagogik-psixologik diagnostikasi.
- 1-bob bo‘yicha xulosa.

II-bob. Boshlang‘ich sinflarda iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash texnologiyasi.

- 2.1. Boshlang‘ich sinflarda iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash usullari.
- 2.2. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda oila maktab xamkorligi.
- 2-bob bo‘yicha xulosa

III-bob. Boshlang‘ich sinflarda iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash yo‘llari bo‘yicha tavsiyalar.

- 3.1. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash bo‘yicha tavsiyalar.

Umumiy xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Mavzuning dolzarbligi. Ta'lim to'g'risidagi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturining" 4.5. bandida **iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar mavzusidagi yo'nalish belgilab qo'yilgan bo'lib, bunda:** Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlari yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma'lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi. Maxsus o'quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi, o'quv-tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroki ta'minlanadi. Fan va texnikani, siyosat va iqtisodiyotni, madaniyat va san'atni o'rgatish markazlari qabilidagi hamda milliy (elita) ta'lim muassasalari tashkil etiladi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobitqadam faoliyat amalga oshiriladi. Akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratiladideyilgan¹. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish yangi g'oyalar, yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalarsiz, ustoz-shogird ilmiy hamkorlik tizimini shakllantirmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Shuning uchun ham ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilarning ilmiy-amaliy bilimlarini va ko'nikmalarini shakllantirishga ahamiyat ortib borishi zarur. O'quvchilarning ilmiy tadqiqot faoliyatini ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida tushunishimiz kerak. Bizning fikrimizga ko'ra, iqtidorli, talantli bolalarni juda erta aniqlashga va ularning intellektual salohiyatlarini ruyobga chiqarishlariga shart-sharoit yaratishimiz lozim. Buning uchun har bir ta'lim maskanida o'quvchilarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish, ijodiy salohiyatlarini mustaqil rivojlantirish, iqtidorli pedagoglar bilan iqtidorli o'quvchilar hamkorlikda individual ishlash muammolariga e'tiborni yanada orttirish lozim. Iqtidor sohiblari

¹ O'zbekiston Respublikasining qonuni **Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida** *O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y.*

mustaqil ijodiy ishlash ko'nikma va malakalari bo'lmagani uchun bilimli va tajribali ustozga muxtoj bo'ladilar. Bu holat, bir tomondan, tajribali ustozlardan ilmiy tadqiqot ishlariga moyilligi bor o'quvchilarni aniqlash va qullab-quvvatlash, ularning intellektual, ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishni, ikkinchi tomondan, iqtidorli o'quvchilardan zamonaviy ilmiy-tadqiqot metodlari bilan tanish bo'lishni, turli xil fan olimpiadalarida, tanlovlarda ishtiroq etishni, ijodiy izlanishlarga qiziqish, ilmiy dunyoqarash, mehnatsevarlik shakllangan bo'lishini taqazo etadi. Faqat shu yo'l bilan iqtidorli o'quvchilarda ilmiy tadqiqot ishlariga, turli fan yo'nalishlarini teran o'rganishga qiziqishni shakllantirish mumkin. Ilmiy tadqiqot ishlarida ishtirok etish o'quvchilarga yangi bilimlar va malakalarga ega bo'lishiga yordam beradi, ijodiy salohiyatini rivojlantiradi, ilmiy ishini tayyorlash jarayonida analitik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi, kelajakdagi hayotiy rejalarini aniqlashga, kasbiy mo'ljalining oydinlashishiga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quv jarayoniga mas'uliyatli yondashishga, ilmiy adabiyotlar bilan ishlashga, aniq maqsad sari intilishga o'rgatadi, ilmiy ish olib borish madaniyatini shakllantiradi. Shuning uchun ham bunday o'quvchilar muayyan sohadagi taniqli olimlar bilan hamkorlik qilishga, shahar, viloyat, respublika, xalqaro miqyosdagi tanlovlarda, ilmiy-amaliy konferensiyalar va boshqa murakkab tadbirlarda qatnashishga psixologik tayyor bo'ladilar. Bu murakkab jarayonning qanchalik samarali bo'lishi o'quvchilar bilan ijodiy ishlash qanchalik tizimli va sifatli tashkil qilinganligiga bog'liq. Zamonaviy ta'lim doirasida o'quvchilarning ilmiy ishlarini tashkil qilish va rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Maktab, litsey, kollejlarda ular uchun yangi faoliyat turi bo'lgan ilmiy izlanishlarni yo'lga qo'yish masalalari dolzarblashmoqda. Ko'zlanilgan maqsad-bolalarda doimiy va tizimli ilmiy –tadqiqot ishlarini olib borish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Bunday faoliyat jarayonida o'quvchilar pedagoglar yordamida ilmiy ish yozadilar. Ularning o'quv ilmiy ishlariga qo'yilgan talablar barcha ilmiy ishlarga qo'yilgan talablarga mos keladi. Asosiy farqi fundamental ilmiy ishlardan ilm uchun ilmiy yangilik talab kilinadi, o'quvchilardan esa,

o'rganayotgan fani bo'yicha darslikdan tashqari qo'shimcha manbalarni to'plash, mustaqil foydalanishi orqali o'zi uchun yangilik yaratishidir.

O'quvchilarning ilmiy faoliyati turli shaklda bo'lishi mumkin. Misol uchun, biron-bir mavzu bo'yicha referat, maqola yozish, ma'ruzalar tayyorlash, konferensiyalarda chiqish qilish va o'zining izlanishlarini chop etish kabilar shular jumlasidandir. Ta'limning sifati ko'p jihatdan pedagogning kompetensiyasi va kasbiy mahoratiga bog'liq. Lekin bunga erishish juda murakkab. Buning uchun o'qituvchi o'zining shaxsiy va kasbiy pozitsiyasiga ega bo'lishi, nazariy-metodologik, texnologik jihatdan rivojlanishga, yangiliklarni o'zlashtirishga va amaliyatda qo'llashga moyil bo'lishi, o'zi ham yangiliklar yaratishga intilishi lozim. Voyaga yetib kelayotgan avlodni ertangi kunning intellektual kadrlari etib tarbiyalash muammolari ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlar mohiyatini tushunadigan, ilmiy izlanishlarga qiziqadigan, o'zi ham tadqiqot ishlari olib bora oladigan iqtidorli o'qituvchilar tarbiyalash tizimini takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Pedagogik faoliyatda asosiy e'tibor tom ma'noda erkin shaxsni tarbiyalash, bolalarda mustaqil fikrlay olish, mustaqil bilim olish va uni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, qarorlar qabul qilishdan oldin uni har tomonlama o'ylab ko'rish, harakatlarini aniq rejalashtirish, turli guruxlarda ishlay olish, ular bilan samarali hamkorlik qila olish, yangi kontaktlar va madaniy-ma'rifiy aloqalarga qodir etib tarbiyalashga qaratilishi zarur. Bu ta'lim jarayoniga yangi-yangi shakl va turdagi ta'lim faoliyatini qo'llashni talab etadi. Shunday faoliyat turlari sirasiga ta'lim oluvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati olib borishlarini kiritish mumkin. Bola ilmiy tadqiqot ishlarida qatnashishni istashi uchun, eng avvalo, unda shu sohaga qiziqish, istak, ichki motivatsiyani o'yg'otish lozim. Keyin pedagog yordamida tanlagan fan yo'nalishiga oid mavzu bo'yicha ilmiy adabiyot to'plashi, internet resurslar bilan ishlashi, umuman, axborot kerakli ilmiy ma'lumotlarni tizimlashtirishni o'rganishi kerak. Buning uchun o'qituvchi yoki ilmiy konsultant o'quvchi bilan ikki yo'nalishda individual ishlash kerak bo'ladi. Chunki, birinchidan, turli xildagi bir martalik topshiriqlarni bajarishda (ma'ruzalar, muayyan mavzular bo'yicha javoblar tayyorlashda), ikkinchidan, ilmiy tadqiqot

mavzusini aniqlashda hamda uning ustida davomiy ishlashda ilmiy rahbarsiz koʻzlanilgan natijaga erishib boʻlmaydi. Oʻquvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida ishtiroki ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish bilan bir qatorda, oʻz kuchiga va kelajagiga ishonch, ilmiy faoliyatga moyillikni shakllantiradi, yangi-yangi marralarga undaydi, turli darajadagi fan olimpiadalarida, tanlovlarida, ilmiy-amaliy anjumanlarda qatnashishga qiziqishini orttiradi. Asosiy eʼtibor tom maʼnoda erkin shaxsni tarbiyalash, bolalarda mustaqil fikrlay olish, mustaqil bilim olish va uni qoʻllash koʻnikmalarini shakllantirish, qarorlar qabul qilishdan oldin uni har tomonlama oʻylab koʻrish, harakatlarini aniq rejalashtirish, turli guruhlarda ishlay olish, ular bilan samarali hamkorlik qila olish, yangi kontaktlar va madaniy-maʼrifiy aloqalarga qodir etib tarbiyalashga qaratilishi zarur. Bu taʼlim jarayoniga yangi-yangi shakl va turdagi taʼlim faoliyatini qoʻllashni talab etadi. Shunday faoliyat turlari sirasiga taʼlim oluvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati olib borishlarini kiritish mumkin. Zamonaviy taʼlim tizimi taʼlim oluvchilarni shaxs intellektual faoliyatning barcha yoʻnalishlarini ijodiy oʻzlashtirishga va yangiliklar bilan boyitishga tayyorlashi kerak. Xulosa qilib aytganda, oʻquv faoliyatini kompleks boyitish, uni zamon talablariga moslashtirish ehtiyoj va talablarini hisobga olib iqtidorli oʻquvchilarni ilmiy tadqiqot ishlariga keng jalb qilish zarur, chunki shu yoʻl bilan ularning bilim olish va boʻsh vaqtlarini foydali hamda samarali oʻtkazishlarini taʼminlash mumkin. Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim jarayonini shakllantirish taʼlim va tarbiya vazifalarini uygʻunlashtirish muammolariga kompleks yondashuv zarurligini koʻrsatmoqda. Shunday qilib, yosh talantlarni, iqtidor sohiblarini aniqlash va ular bilan ishlash jamiyat va davlatning intellektual kadrlarga boʻlgan talab va ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Unutmasligimiz kerakki, bugungi maktab, litsey, kollej iqtidorli oʻquvchilari ertangi kunning olimlari, liderlari, rahbarlari boʻlib yetishishlari uchun bugun ularni ijodiy izlanishlarga qiziqtirishimiz, murakkab bilimlarni maktab yoshidanoq egallashga yoʻnaltirishimiz zarur. Ularning iqtidor va salohiyatlarini oʻz vaqtida koʻra olish, rivojlantirish va namoyon etishlariga sharoit yaratish bugungi taʼlim tizimining vazifasidir. Yuqoridagi fikirlardan kelib chiqqan holda,

bitiruv malakaviy ishmizning mavzusi **“Boshlang‘ich sinflarda iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash yo‘llari”** deb nomlanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash yo‘llari o‘rganish.

Bitiruv malakaviy ishning ob’ekti: Boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Boshlang‘ich sinflarda iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash yo‘llari mazmuni, shakli, metodlari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

1. Boshlang‘ich sinflarda iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash yo‘llari dolzarb pedagogik muammo ekanligini ilmiy jihatdan asoslash.

2. Boshlang‘ich sinflarda iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash yo‘llari mazmuni, shakli, metodlari mavjud ahvoli va pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish.

3. Boshlang‘ich sinflarda iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash yo‘llari bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari: nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, anketa, savol-javob, suhbat, ekspert baholash, pedagogik eksperiment.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va asarlarida bayon etilgan mazkur mavzuga oid qarash hamda yondoshuvlar, O‘zbekiston Respublikasi hukumati Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligining qarorlari, buyruqlari, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘grisida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», Davlat ta’lim standartlari, ta’lim texnologiyasi nazariyasi, bixeviorizm kamda shaxsni shakllantirish haqidagi falsafiy, pedagogik va psixologik ta’limotlar, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalar.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi: BMI kirish, 3 bob, 5 paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I-bob. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlashning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari.

1.1. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlashning pedagogik-psixologik ahamiyati.

Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul. Ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob'ekti va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- 2) ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;

- 3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- 4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan ob'ektiv yondashuv;
- 5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;
- 6) tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini aytib o'tish;
- 7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- 1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo‘q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo‘llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;

3) anketa savollari o‘quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

4) anketa savollari respondentlar tomonidan to‘la javoblar berilishini ta’minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;

5) anketa o‘quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta’minlaydi. Intervyu respondent e’tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o‘tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta’lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta’lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma’lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta’lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o‘rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va ta’lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo‘llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

- 1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo'q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).
- 3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejallishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatiga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) fan olimpiadalari;
- 2) turli mavzulardagi tanlovlar;
- 3) maktab ko'rgazmalari;
- 4) festivallar;
- 5) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

Shaxs tushunchasi shaxsga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini

ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit shaxs sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

“Individ” nima? Bola ma'lum yoshga qadar “individ” sanaladi. Individ (lotincha “individium” so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati shaxsni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam shaxs sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning o'zi nima?

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir.

Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Bola shaxsining rivojlanishi shaxs ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda shaxs tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Shaxs butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxsning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir shaxs o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham shaxsning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidadir.

Shuning uchun ham shaxs faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgaplighi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Kichik maktab yoshida o'yin faoliyatining o'rnini endi o'qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o'tish davri bo'lib, bolaning bo'yi, og'irligi jihatdan uning tashqi ko'rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o'sishi tufayli serharakat bo'ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'rganishga qiziquvchan bo'ladi.

Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr va tomosha va ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o'quvchilariga emotsionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo'ladi, his-tuyg'ulari mazmuni o'zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar.

Turli to'garaklarga 21 foiz o'smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug'ullanadi. 40 foiz o'quvchida, sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo'q.

Eng muhim qiziqish – teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 foiz o'smir tomosha qiladi.

Ular oddiy kunni o'z ixtiyorlari bilan qanday o'tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 foiz o'smir vaqtini o'z holicha o'tkazadi, 70 foizi kino yoki televizor ko'radi, 50 foizi sport bilan shug'ullanadi, 45 foizi uxlab yoki yotib dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga boradigan o'smirlarning soni 15 foizni tashkil etadi.

O'z-o'zini tarbiyalash natijasida o'g'il bolalar kuchli, erkin, e'tiborli, jasur; qizlar esa – o'ta ko'nikuvchan, kamtar va jiddiy bo'la boshlaydilar.

Shuning uchun o'smirlarga o'z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13-14 yoshgacha o'smirda burch hissi, mas'uliyatni his etish, vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Muhimi, o'smir shaxsini hurmat hilish, kamsitmaslik, katta bo'lib qolganligini tan olish zarur.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni

qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan shaxs jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud. Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda otionalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik shaxsparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin. Zero, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzluksiz ta'limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

1.2. Iqtidorli o'quvchilarni aniqlashning pedagogik-psixologik diagnostikasi.

Pedagogikada "Shaxs" tushunchasi psixologiyda "Shaxs" tushunchasidan farqli o'laroq u shaxsning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi. Yangi jamiyat boshqa odamlar bilan muomalada bo'lishi, munosabat o'rnatishi natijasida shakllanib boradigan sifatlarni bildiradi. Shaxsning psixik xususiyatlarini rivojlanishi (aql, iroda, diqqat, harakat va h.k.), hayotda o'z o'rnini topa olishi, uning Vatani, xalqning ravnaqi yo'lida og'ishmay, e'tiqod bilan xizmat qilishi, imonli bo'lishi shaxsni shaxs darajasiga ko'taradi. Bunday sifatlarni ro'yobga chiqishi tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Lekin hamisha shuni unutmasligimiz kerakki, shaxs tushunchasi - bir butun (yaxlit) tushunchadir. Odamning ma'naviy qiyofasini chuqur bilish uchun uning faqat psixik xususiyatlarini o'rganishgina emas, balki shaxsning fuqaro sifatidagi, jamoat arbobi sifatidagi, xodim sifatidagi xususiyatlarini va shu kabi tomonlarini ham yaxshi tasavvur etish zarur. Ayniqsa har qanday ayrim ruxiy jarayonni yoki shaxsning ayrim xususiyatini (masalan, kuzatuvchanlik, iroda, xarakter va shu kabilarni), umuman odamning ma'naviy qiyofasi xarakteristikasi bilan bog'lamay turib o'rganib bo'lmaydi. Shaxsni o'rganish — juda murakkab, qiyin ish.

Bu to'g'rida L. N. Tolstoy chuqur va yaxshi fikr bayon qilgan edi: "...men sizni birinchi marta ko'rib turibman, boshingiz, qo'llaringiz, oyoqlaringiz barcha odamlarnikiday, yuzingiz bichimi shunaqa yoxud o'zgacha. Buni men ham ko'rib turibman, hamma ham ko'radi. Ammo mana, agar men ko'nglingizga yo'l topolsam, shu joyga qo'l sola olsam (u mening yelkamga qo'lini- qo'ydi, ikkinchi qo'lini ko'ksimga qo'ydi), agar o'sha joyda bor bo'lgan narsani oshkora qila (tashqariga chiqara) olsam men kishini hayajonlantira olaman, ko'ziga yosh oldira olaman, barcha hislarini qo'zg'atib yubora olaman, ko'zga ko'rinmas odamni ana shunday yaqqol shaklda ko'rsata olaman, u holda men chinakam san'atkor bo'laman"¹.

¹ «Неделя», 1963 йилги 36-сон, «Вечер с Львом Толстым» (Л. Н. Толстойнинг француз журналисти Ф. Ортманс билан сухбати).

Psixolog ham, pedagog ham ayrim shaxs xususiyatlarini o'rganib, bilib olar ekan, taxminan ana shunday ish qilmog'i kerak.

Har bir odamning qiyofasi bor, ya'ni u shaxsdir, deb yozgan edi ajoyib rus tanqidchisi V.G.Belinskiy, har bir odam nimasi bilandir boshqa odamlarga o'xshaydi va nimasi bilandir ulardan farq qiladi. Har bir odam mislsiz (yagona) shaxsdir.

Shaxsning ijtimoiy tabiati odamning psixik faoliyati o'rganilar ekan, hamma vaqt shuni ko'zda tutish kerakki, kishining tevarak-atrofdagi muhitga, boshqa kishilarga va shaxsan o'ziga munosabati o'zi yashayotgan jamiyatning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Har bir odam jamiyatning boshqa a'zolari bilan muayyan munosabatlarda bo'ladi. Xuddi shu munosabatlar odam shaxsini tarkib toptiradi—odam shu jamiyatda qabul qilingan va rivojlantirilgan ahloq qoidalarini, urf-odatlarini, ahloq normalarini o'zlashtirib oladi, bilimlarni, malakalar va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtiradi.

Shaxsning voyaga yetishida psixik xususiyatlar odam asab sistemasining xususiyatlariga bog'liq bo'ladi, ammo asab sistemasi bu psixik xususiyatlarni oldindan belgilab bermaydi, psixik xususiyatlar tug'ma emas, ular biologik xususiyatlar bilan bog'liqdir. Odam tayyor xarakter va qiziqish-havaslar bilan, tayyor mayllar, muayyan qobiliyat va shu kabilar bilan dunyoga kelmaydi. Bu xususiyatlarning hammasi asta-sekin, hayot jarayonida hosil bo'lib, tarkib topa boradi.

Shaxsning voyaga yetishida tarbiya hal qiluvchi rol o'ynaydi. Odam psixik jihatdan o'sa borgan sari shaxsning voyaga yetishida o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni odamning o'z shaxsiy sifatlarini takomillashtirishga qaratilgan ongli ishi ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Chunonchi, odam o'z oldiga irodasini, diqqatini o'stirib borish, xotirasini mustahkamlash, kuzatuvchanlik qobiliyatini o'stirish vazifasini qo'ymog'i mumkin. Shu maqsadga erishish uchun odam muayyan mashqlarni bajaradi, to'siqlarni yengib o'tadi, zo'r berib ishlaydi va, shu tariqa, ko'ngildagi natijalarga erishadi. O'z-o'zini tarbiyalash yo'li bilan ko'pgina psixik

sifatlarni, ancha takomillashtirish, shaxsning ba'zi kamchiliklarini kamaytirish mumkin.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun astoydil, sabot bilan intilish, muntazam mashqlar va mehnat tufayli mo'jizakor ishlar qilish mumkin. Shu bilan birga, bu sharoitda o'z-o'zini tarbiyalash va shaxsning o'z-o'zini qayta tarbiyalashi mumkin. O'z saviyasi va malakasini oshirish borasidagi ish hamisha odamni juda mamnun qiladi, uning irodasini kuchaytira boradi. Odamning o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini kamolotga yetkazish jarayoni oila, maktab, yoki jamoat tashkilotlarining tarbiyaviy ta'siri bilan mustahkamlab boriladigan bo'lsa samarali bo'ladi. Agar odamning o'z-o'zini tarbiyalash borasidagi shaxsiy maqsad va vazifalari bilan ijtimoiy tarbiyaning maqsad va vazifalari bir-biriga to'g'ri kelsa, yanada yaxshi bo'ladi: u holda shaxsiy narsa bilan ijtimoiy narsa bir-biriga zid bo'lmay, balki birga qo'shilib ketadi. Yoshlar o'z shaxsiy baxtini ijtimoiy masalalarning hal etilishi bilan bog'laydigan bo'lsalar, masalan, kommunistik jamiyatning ilg'or quruvchilari bo'lish maqsadida yuqori mutaxassislik darajasiga erishishga intiladigan bo'lsalar, juda soz bo'ladi.

Har bir kishiga yuzaki-beparvo qaramay, balki g'amxo'rlik-mehribonlik bilan qarash uni yaxshiroq bilib olishga va anglashga imkon beradi. Ayniqsa tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchining bir-birini yaxshi anglashi belgilab qo'yilgan maqsadga erishishni osonlashtiradi, yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi. Bu holda tarbiyalanuvchi o'z tarbiyachisiga beixtiyor yordam qiladi, kerakli psixik sifatlarni tarkib toptirish jarayonini tezlashtiradi. Bordi-yu, tarbiyalanuvchi tarbiyaviy tadbirlarga qiziqmaydigan (beparvo qaraydigan) bo'lsa, ayniqsa bunday tadbirlarning tagigacha yaxshilab tushunib yetmay, bunga qarshilik o'rsatadigan bo'lsa, mutlaqo yomon bo'ladi.

Tarbiyaviy ishda muvaffaqiyat qozonish uchun bola shaxsining voyaga yetish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan sabablarni yaxshi bilish zarur. Maktabda tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarni yaxshi bilish, bolalar mehnati va bo'sh vaqtdan foydalanish qanday uyushtirilganligi va boshqa ko'pgina narsalarni hisobga olish kerak. O'quvchining hayoti ana shu barcha

munosabatlar asosida tashkil topadiki, buni bilish, anglash va muayyan yo'lga solish kerak. Buni bilmay turib kishini tarbiyalash haqida ham, unga ta'sir etish to'g'risida ham, o'z-o'zini tarbiyalash xususida ham jiddiy gapirib bo'lmaydi.

Tarbiyaviy ishning ahamiyati — uning samarali bo'lishida, amaliy natijalaridadir. Shaxsni voyaga yetkazish — odamning ijtimoiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan ish-harakatlari va hatti-harakatlarini tarkib toptirish demakdir.

Shaxsni tarbiyalashda jamoa ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Jamoada odamning g'oyaviy yo'nalishi tarkib topadi, uning faoliyati va xulq-atvori tartibga solinadi, xarakterining kommunistik xislatlari tarbiyalanadi, turli qobiliyatlarining o'sishi uchun zarur bo'lgan sharoit yaratiladi.

Jamoa o'quvchilarni qayta tarbiyalash va ularni o'tmish sarqitlaridan halos qilish uchun katta imkoniyatlarga egadir. Lekin, shunga qaramasdan, ayrim kishilarda shaxsga xos ba'zi kamchiliklar va salbiy sifatlar sezilar ekan, buning sababini kollektivning, jamoatchilik kuchlarining ta'siridan yetarli foydalanmaslikdan axtarish kerak.

Jamoaning o'z a'zolariga tarbiyaviy ta'siri shu kollektivning g'oyaviy yetukligiga, uyushqoqligi va jipsligiga bog'liq bo'ladi.

Shaxsning biror maqsadni ko'zlashi — murakkab ruhiy tushunchadir, bu tushuncha asosan odamning maqsadlari va intilishlarini ko'rsatadi. Odamni bilib olish uchun qanday motivlar va ehtiyojlar ana shu maqsad va intilishlariga imkon berishini, odamning o'z xulq-atvorida va umuman faoliyatida qanday qiziqish-havaslarga amal qilayotganligini bilish zarur.

Odam o'z ehtiyojini hamisha biror narsadan qoniqmaslik yoki biror nima yetishmasligi tarzida ko'ngildan kechiradi. Odamning ehtiyojlari xilma-xil bo'ladi. Odamning kun ko'rishiga bevosita imkon beradigan moddiy ehtiyojlar bor: bu — ovqatga, kiyim-kechakka, turar joy va shu kabilarga bo'lgan ehtiyojlardir. Mana shu ehtiyojlar bilan bir qatorda odamda ma'naviy ehtiyojlar — boshqa odamlar bilan aloqa qilish ehtiyojlari, mehnatga ehtiyoj, madaniy ehtiyojlar (kitob va gazeta o'qish, teatrga, kinoga borish, radio eshitish, televizor ko'rish va shu singari ehtiyojlar) bor.

Odamning ehtiyojlari shaxsiyat jamiyati ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining mahsulidir. Shu taraqqiyot jarayonida odamlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari yuzaga kelib, tobora o'zgara va murakkablasha bordi. Qiziqish-havaslar deganda odamning narsalarga va ob'ektiv voqelik hodisalariga munosabatini tushunmoq lozim, bu munosabat ana shu narsa va hodisalarni bilishga yoki ularni o'zgartirishga intilishda ifodalanadi.

Ehtiyojlar bilan qiziqish-havaslar o'rtasida ma'lum birlik mavjud va ular o'zaro bog'langan bo'ladi. Odamning qiziqish-havaslari ehtiyojlar asosida yuzaga keladi va tarkib topadi. Barqaror qiziqish-havaslar va o'z navbatida ba'zan yangi ehtiyojlarning paydo bo'lishiga o'ng'aylik berishi mumkin. O'qishda, muzikada, rassomlikda, sport va shu kabilarda goho madaniy ehtiyojlar shu tariqa paydo bo'ladi.

Keng va tor doiradagi qiziqish-havaslar, chuqur va yuzaki qiziqish-havaslar bo'lmog'i mumkin, bunday qiziqish-havaslar ko'p jihatdan shaxsning qanday maqsad ko'zlashini ko'rsatadi. To'g'ri ba'zi odamlar qiziqish-havaslarining tarqoqligi bilan xarakterlanadi, u holda, bunday kishilarda aniq muayyan maqsadni ko'zlash. yo'q, deymiz.

Lekin odam faqat o'zi bevosita ehtiyoj sezgan ishni qilish bilangina cheklanib qolmaydi va u o'zini qiziqtiradigan narsa bilan shug'ullanibgina kifoyalanmaydi. Shaxsning xulq-atvori ma'naviy motivlar bilan, vijdoniy burch hissi, ijtimoiy burchlar va shu kabilar bilan ham belgilanadi.

Odam xulq-atvorining axloqiy motivlari doimo ma'naviy ideallarda ifodalanadi.

Garchi onda-sonda bo'lsa-da, qanday bo'lmasin ma'naviy prinsiplari, ahloqiy negizlari bo'lmagan odamlar ham uchraydi. Bu holda biz axloqsiz shaxs haqida gapiramiz, odobsizlik uning buzuvchi xatti-harakatida yaqqol ko'rinadi. Bizning jamiyatimiz bunday kishilarni qoralaydi, ularni tanqid qiladi va ayni mahalda ularning odobli bo'lishi, shaxsiy qadr-qimmati uchun kurash olib boradi.

Ma'naviy ideal odamning o'z faoliyati va xulq-atvorida amal qiladigan namunadir. Ma'naviy ideallar shaxsning dunyoqarashi bilan belgilanadi. Har bir tarixiy davrning o'z ideallari o'ziga xos ideal shaxs obrazi bor, bu obrazda odamlarning eng muhim xislatlari va maqsadlari mujassamlanadi.

Shaxsning ma'naviy qiyofasini, uning ruhiy yaxlitligini tarkib toptirishda uning o'tmishi, turmush tajribasigina emas, balki uning kelajagi, ya'ni har bir odamning istiqboli ham katta ahamiyatga egadir. Shaxsni voyaga yetkazishda istiqbolni ko'zda tutish kerak.

O'z tarbiyalanuvchilarining ruhiyatini fahmlab ola bilish, ularning temperamenti (mijozi), xarakteri, odatlari, qiziqish – havaslari, qobiliyatlari to'g'risida chuqur va keng tasavvurlarga ega bo'lish o'qituvchi uchun muhimdir. Mana shu tasavvurlar va bilim, keng ma'lumotli bo'lish — pedagogning muhim qobiliyati hisoblangan psixologik kuzatuvchanlik va farosat samarasidir.

Yaxshi o'qituvchi o'z o'quvchilarini hamisha biladi, nimalarning ular uchun qiyin bo'lishini payqaydi, bu qiyinchiliklarning oldini oladi va kimlarga yordamlashish zarur bo'lsa, o'shalarga ko'mak beradi. U o'z o'quvchilariga nisbatan hamma vaqt odillik bilan (haqqoniy) ish ko'radi. Odillik (haqqoniylik) o'qituvchi shaxsning xislati bo'lib, o'quvchilar buni juda qadrlashadi. Maktab bolalari o'z o'qituvchisining bilimiga va hatti-harakatlarga baho berishdagi haqqoniyatsizligini hech qachon kechirmaydi. Ularning fikricha, eng yomon o'qituvchi — haqqoniyatsiz o'qituvchidir.

Qobiliyatli o'qituvchi yaxshi tajribani o'z sharoitiga muvofiq ravishda qayta ishlab chiqadi. O'qituvchining ijodi topqirlik ko'rsatishda, o'qitishning turli usullarini topishda namoyon bo'ladi. Katta ijodiy tashabbus ko'rsatadigan va faqat bilimdongina bo'lmay, balki o'z qo'li bilan ko'pgina ishlarni ham qila oladigan o'qituvchi hamisha o'quvchilarning muhabbatini jalb etadi va taqlid qilish uchun namuna bo'ladi.

Pedagoglik odobi (nazokati) ilg'or o'qituvchisi shaxsining muhim bir sifatidir. Pedagoglik odobi tarbiyalanuvchilarga ustalik bilan, to'g'ri muomala qila bilishda, ularga tegishli ta'sir ko'rsata bilishda namoyon bo'ladi.

Hamma vaqt, har kanday sharoitda o'zini dadil tutish (o'zini yo'kotmaslik) o'qituvchi uchun muhimdir. O'qituvchining hozirjavobligi, muayyan bir vaziyatga qarab darrov ish ko'ra bilish va shu vaziyatda o'zini qanday tutish kerakligini hal etish qobiliyati katta ahamiyatga egadir.

O'qituvchilik ishi yaxshi tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishni talab etadi o'quvchilar kollektivini boshqara bilish, ularning mehnatiga rahbarlik qila bilish kerak. O'qituvchining tashkilotchilik qobiliyati dastavval uning darsni qanday o'tkazishda aniq ko'rinadi: bu to'g'ri planlashtirilgan dars ham, shu planni birmuncha aniq bajara bilish hamdir.

O'qituvchining ta'lim-tarbiyaviy ishida to'g'ri, ravon, madaniy nutq juda katta ahamiyatga egadir. Bundan tashqari o'qituvchining nutqi ba'zi bir sifatlar bilan farq qilmog'i kerak, bu sifatlar uning nutqini pedagogik tusga kiritadi. Bu muayyan bir masalaki hal etish maqsadida so'zlanadigan nutqdir. O'qituvchi yangi topshiriqlarni bayon qiladimi, bularning bajarilishini tekshiradimi, bolalarni biror narsaga ishontirmoqchi bo'ladimi, biror ishni ma'qullaydimi yoki biror tanbeh beradimi barcha hollarda layoqatli o'qituvchining nutqi aktivligi, jo'shqinligi va samimiyligi bilan, gapirilayotgan narsaga ishonchi bilan ajralib turadi. Shu sababli o'qituvchining nutqi juda ta'sirli bo'ladi. Nutq intonatsiyasini egallash ham o'qituvchi uchun muhimdir.

Ideal o'qituvchida juda yaxshi o'qituvchi bilan juda yaxshi tarbiyachining fazilatlari uyg'unlashib (qo'shib) ketadi.

Pedagogika kursining muhim metodologik muammolaridan biri bu shaxs tarbiyasi va uning rivojlanishi muammosi hisoblanadi.

O'sib va rivojlanib boruvchi shaxs tarbiya ob'ekti hisoblanadi. Butun hayoti davomida shaxsning rivojlanish jarayoni davom etaveradi. Bu jarayonda u turli o'zgarishlarni, jismoniy, psixik, miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z boshidan kechirib boradi. Shaxsda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga uning bo'yini o'sishi,

vaznini og'irlashib borishi, suyak va mushak sistemalarini, ichki organlari va asab sistemasini o'zgarib borishi kiradi. Psixik o'zgarishlar esa, uning aqliy rivojiga aloqador bo'ladi va shaxsda shaxsning psixik sifatlarini shakllanib borishi, unda hayot uchun zarur bo'lgan sotsial sifatlarni tarkib topishi hisoblanadi.

Odam bolasining rivojlanishi bu muhim jarayon sanaladi. Ma'lumki, hayoti davomida shaxs jismoniy va psixik tomondan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham psixik jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar sistemasida o'ziga munosib o'rin egallaydi.

Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvori shakllanishiga qanday omillar ta'sir etadi? Pedagogika bola tarbiyasiga, uning shakllanishiga biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta'sir etadi, deydi. Bu muammo pedagogikada azaldan munozaraga sabab bo'lib kelayotgan masala hisoblanadi.

Ko'p asrlik ana shu munozara zaminida bir-biriga qarama-qarshi ikki nuqtai nazar vujudga keldi. Ulardan bir toifasi odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy biologik omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi deb biladilar. Ularning fikricha, bola ona qornidalik vaqtida avlod-ajdodlardan o'tgan tug'ma xususiyatlarga rivojlanadi. Bu nuqtai nazar tarafdorlari tarbiyaning rolini cheklab qo'yadilar. Bu nuqtai nazar fanda biologik yo'nalish deb nomlanadi. Ularning vakillari Aristotel, Platonlarning fikrlaricha taqdir, tole har kimning hayotidagi o'rnini, mavqeini avvaldan belgilab bergan.

Odam bolasi ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsiga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi, rivojlanish esa ana shu xususiyatlarning miqdoriy ko'payib borishidan iboratdir. Preformistlar ham naslning shaxs rivojlanishidagi roliga favqulodda yuksak baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini mutlaqo inkor etadilar. Bu nazariyaning yana bir yo'nalishi XX asrda keng tarqalgan bixeviorizm oqimi bo'ldi.

Bixeviorizm oqimiga amerikalik pedagog va psixolog E. Torandayk asos soldi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, shu jumladan ong va aqliy qobiliyat ham nasldan-naslga o'tadi. Bu bilan E. Torandayk tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini inkor etadi, uni shaxsning xususiyatlariga ta'sir etishdan o'jiz deb biladi.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Forobiy, Abu Ali ibn Sinolar ham shaxs tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berib kel-ganlar. Forobiy shaxs kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: ““Munosib shaxs” bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqotda ahloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir”... deydi.

Abu Ali ibn Sino etika va ahloqiy tarbiya masalalarini falsafiy-pedagogik asosda yoritib berishga harakat etadi. U ayniqsa oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: “Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa oila baxtli bo'ladi” degan fikrni ilgari suradi.

Bola shaxsining rivojlanishiga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda ota-onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarni takrorlanishini tushunmoq kerak. Har bir bola ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochining, ko'zining, terisining rangi, bo'yi basti va boshqalar) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tug'ma o'tadi. Bu fiziologik xususiyat hisoblanadi.

Akademik I. P. Pavlovning ta'limotiga ko'ra, bola bir qator tug'ma xususiyat va instinktlarga ega holda tug'iladi va bular shartsiz reflekslar gruppasini tashkil etadi. Bular orasida oshqozon refleksi (so'lak ajratish), muhofaza refleksi (issiqdan qo'lni tortish, yorug'dan ko'zini qisish, kabilar alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo bu xususiyatlar shaxsga ham, hayvonga ham taalluqlidir. Ayni vaqtda shaxslarga xos bo'lgan xususiyatlar ham irsiyat yo'li bilan o'tadi. Masalan, tanani vertikal

holdagi harakati, tafakkur va nutq rivojlanishi, mehnat qilish qobiliyati — bular tugʻma imkoniyatlar boʻlib, ularning rivojlanishi uchun shaxs bolasi odamlar orasida yashab, ular bilan aloqa qilishi darkor. Bu psixik imkoniyatlarning chindan ham rivojlanmogʻi, roʻyobga chiqmogʻi uchun bola faqat oʻsibgina qolmay, balki shu oʻsish jarayonida shaxslar orasida yashamogʻi, ulgʻaymogʻi va ijtimoiy hayotda ishtirok etmogʻi kerak. Chunki shaxs biologik mavjudot sifatida emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanadi va kamolga yetadi. Bola nutqni egallashi uchun nutq sharoitida, mehnat qilish uchun mehnat sharoitida, aqliy taraqqiy etmogʻi uchun aqliy faoliyat sharoitida yashamogʻi kerak. Ana oʻshanda bolaning nimaga, qanday sohaga layoqati borligi namoyon boʻladi. Fiziologiya va psixologiya fanining koʻrsatishicha shaxs bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror xil qobiliyatni roʻyobga chiqishi va rivojlanishiga taʼsir etadigan potensial imkoniyatlar, yaʼni shaxs xususiyatini ifodalaydigan layoqat bilan tugʻiladi. Tugʻma layoqat oʻz holicha rivojlana olmaydi, goʻyo u “mudroq” holatda boʻlib, uning uygʻonishi - rivojlanishi uchun qulay muhit kerak.

Agar bola oʻz layoqatiga mos sharoitda oʻsib, zarur faoliyat bilan shugʻullansa, layoqat erta koʻrinib, rivojlanishi, aksincha bu boʻlmasa yoʻq boʻlib ketishi mumkin. Shuning uchun pedagogika layoqatning namoyon boʻlishi va qobiliyat sifatida rivojlanishi toʻla-toʻkis hayot sharoitiga va tarbiyaga bogʻliq deb biladi.

Shaxs kamolotiga taʼsir etadigan omillardan biri muhit deganda kishiga stixiyali taʼsir etadigan tashqi voqealar kompleksi tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti (mikromuhit) kiradi.

Tabiiy (geografik) muhit (iqlim, tabiiy sharoiti va boyligi) soʻzsiz shaxsning hayot tarziga, xarakteriga va mehnat faoliyatiga taʼsir etadi. Masalan: tropik mintaqada hayot kechirayotgan shaxslarning hayot tarzi uzoq shimoldagi shaxslar hayot tarzidan farqlanadi, bu ularning hayot tarziga va ularning rivojlanishiga taʼsir etadigan qator omillar bilan isbotlanadi.

Shu bilan birga shaxs kamolotida mikromuhit— oila sharoiti ham katta taʼsir kuchiga ega. Chunki bola koʻz ochib ota-onasini, qarindosh-urugʻini koʻradi.

Uning intensiv jismoniy va psixologik rivojlanadigan davri oila ta'sirida shakllanadi, xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bekorga aytilmagan. Oilaning hayot tarzi, undagi bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadigan tarbiyaviy muhit uning kamolatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola kamolotida ijtimoiy muhit muhimdir. Chunki bu yerda ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar kishiga alohida ta'sir qiladi. Ijtimoiy aloqasiz, odamlar bilan aloqa qilmasdan odam shaxs bo'la olmaydi. Bu xil munosabat natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi.

Shaxs kamolotiga ijtimoiy muhitning ta'siri turli tarixiy davrda (formatsiyalarda) turlicha bo'ladi, turli sotsial guruhlarga ham turlicha ta'sir etadi. Shunday ekan, hozirgi zamon pedagogika fani muhitga, uning shaxs rivojlanishidagi ta'sirining roliga alohida e'tibor beradi. Muhit tushunchasiga kiradigan ijtimoiy hayot voqealarining shaxsga ta'siri g'oyat muhim ekanligini ko'rsatadi va ijtimoiy muhit abadiy emas, o'zgaruvchan deb qaraydi. Shuning uchun muhit shaxs taqdirini belgilab beradigan omil deb hisoblanilmaydi. Ammo uning ta'sirini rad etmaydi.

Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uning natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi.

Shaxs kamolati irsiyat yo'li bilan orttirilgan va tabiiy layoqatlar bilan belgilanib qolmay balki, butun hayoti davrida uni qurshab olgan vo-qelik ta'sirida orttirgan xususiyat va sifatlar bilan ham belgilanadi.

Shubhasiz tarbiya odamning ko'zi, sochi, terisining rangiga, uning badani tuzilishiga ta'sir eta olmaydi. Lekin shu bilan birga tarbiya jismoniy taraqqiyotga ta'sir etishi mumkin. Chunki maxsus tashkil etilgan jismoniy mashqlar orqali bolaning salomatligi mustahkamlanadi va chiniqtiriladi. Ma'lumki, shaxsning tabiiy qobiliyati faqat tarbiya orqali, uni ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilish orqali rivojlanishi mumkin.

Ma'lumki, bola layoqatini rivojlantirish uni qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak.

Mehnatsevarlik va muttasil o'tirib ishlash kabi fazilatlar faqat tarbiya natijasida orttiriladigan fazilatlardir. Garchand shaxs kamolatiga ta'sir etadigan omillar bir qancha bo'lsa ham lekin, maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachining rahbarligida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi. Chunki, **birinchidan**, tarbiya ta'sirida muhit ta'siri bera olmagan fazilatlar o'zlashtiriladi va narsalar o'rganiladi, ya'ni bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalar, malakalar ham maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish yoki bartaraf qilish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Shu tufayli, u shaxsning kamolga yetishini tezlashtiruvchi rol o'ynaydi. Shaxsni kamol topishida maktabning ahamiyati katta. Bolalar maktabga qadam qo'yar ekan, ular o'quv mehnati bilan band bo'ladilar. Bolalar maktabda fan asoslarni egallab olishi bilan birga ularda sekin-asta ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi. O'qituvchi-tarbiyachilarning rahbarligida shaxsga xos bo'lgan yuksak fazilatlarni egallaydilar. Reja asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etib, bolani tarbiyalashda oilaga har vaqt yordam ko'rsatadi. Tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchisining oila sharoitidan xabardor bo'lishi, pedagogik maslahatlarga, yordamga muhtoj bo'lgan oilalarga yordam berishi muhim. Tarbiyachi uchun bola bo'sh vaqtini kimlar bilan va nimalar bilan mashg'ul bo'lib o'tkazayotgani ahamiyatsiz emas. Chunki o'z holiga tashlab qo'yilgan bola ko'chaning salbiy ta'siriga berilib ketishi mumkin.

Psixologik-pedagogik eksperiment- o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini tabiiy sharoitda maxsus usullar yordamida o'rganishdir. Mazkur eksperiment o'quvchilarni maxsus uyushtirilgan ta'lim sharoitida maqsadga muvofiq ulardan o'zgarishlarni ko'zatishni taqozo etadi. Bu eksperiment aniqlovchi va tarkib toptiruvchi bosqichlardan iborat bo'lib, maxsus uyushtirilgan ta'lim tarkib toptiruvchi eksperiment jarayonida olib boriladi, U quyidagi

to'zilyashga ega: eksperimentator yoki tadqiqot olib boruvchi, sinaluvchilar, faraz, reja, yo'l-yuriq, tajribaning bir-biriga bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan, o'zgaruvchan, nazorat qilinadigan va qilinmaydigan qismlardan iborat. Eksperimental tadqiqotning asosiy bosqichlari: farazni ilgari surish, metodikani tanlash, eksperimentni rejalashtirish, olingan ma'lumotlarni ishlab chiqish, taxlil etish va izohlashdan iboratdir.

Anketa metodi. Kishilar psixikasini ommaviy so'roq asosida o'rganish demakdir. Bu metod yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarning munosabatlari o'rganiladi. Anketa odatda uch turda o'tkaziladi.

Ularning **birinchi** turi anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan to'ziladi.

Ikkinchi turida har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi.

Uchinchi turdagi anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. Anketadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Tarqatilgan anketalar yig'ishtiriladi va elektron hisoblash mashinalarida hisoblanadi, atroflicha miqdoriy tahlil qilinadi, so'ngra tadqiqotga yakun yasalib, ilmiy va amaliy y'ysinda xulosalar chiqariladi. Anketa metodi shaxs psixikasini o'rganish uchun boy ma'lumotlar to'plash imkonini beradi. Birok, unda olinadigan ma'lumotlar doimo xolisona xususiyatga ega bo'lavermaydi. Bunday kamchilikka yo'l qo'ymaslik uchun anketa ichidati nazorat vazifasini bajaruvchi savollarni pusxa ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Biografik (tarjimai hol) metodi. Shaxs psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma matlumotlar biografik metod orqali o'rganiladi. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, estaliklari, o'zgalar ijodiga bergan baholari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi.


Shu bilan birga o'zgalar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar: estaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitafon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, taqrizlar o'rganilayotgan shaxs haqida to'la tasavvur etishga xizmat qiladi.

Tarjimai hol ma'lumotlari shaxs psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda, uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochishda yordam beradi.

Biografik ma'lumotlar odamlarning o'zini o'zi tarbiyalashi, nazorat qilishi, idora etgani, o'zining uslubini yaratgan, kamolot chuqqisiga erishishi jarayonida namuna vazifasini o'taydi.

Sotsiometrik metod. Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini ылchashda qo'llaniladi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Bu usulda sinaluvchilarga bevosita savollar beriladi va ularga ketma-ket javob qaytarish orqali guruh a'zolarining o'zaro tanlash jarayoni vujudga keltiriladi. Maktabgacha tarbiya muassasalari maktabdagi o'quvchilar jamoasi, mehnat lagerlari, oliy maktablar, mehnat jamolari va turli muassasalarning xodimlari o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari, dinamikasi, shaxslararo ziddiyatlarning sababi shu metod yordamida ылrganiladi. Umuman olganda, sotsiometriya metodidan turli yoshdagi, ikki xil jinsdagi, saviyasi xar xil kishilar guruhlaridagi psixologik qonuniyatlarni tadbiq etishda unumli foydalanish mumkin.

Dunyoqarash – shaxsning shaxsligini (individd emas), uning ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir. Shuning uchun ham uning shakllanishi va o'zgarishi masalasi muhim masalalardan bo'lib, hamma vaqt va davrlarda ham o'ta dolzarb bo'lib kelgan. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, jamiyatda tub islohotlar boshlandi. Ana shu islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri – ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyat a'zolari dunyoqarashini istiqlol ruhida shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Davlatimizning yoshlar borasidagi siyosatining asosini ham ularda yangicha xurfikrlilik bilan yangicha dunyoqarashni shakllantirishdir. Rasmda ko'rinib turganidek, psixologiyada o'zgarishlar sharoitida e'tiqod, dunyoqarash va ideallar o'zgarishiga sabab bo'luvchi asosiy omillarni quyidagicha izohlash mumkin:



Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar

Yoshlarning ma'lumotlilik darajasi ham yangilanish davrida ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Agar o'smir yoki o'spirinda ilk yoshlikdan kitobga, bilimga mehr tarbiyalanmagan bo'lsa va uning bilim hamda tushunchalari doirasi tor bo'lsa, u sog'lom g'oyani nosog'lomdan, dunyoviylikni dahriylikdan, ziyoni jaholatdan farqlay olmaydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz yoshlarimiz bilim olishlari uchun, ular iqtidorining rivoji uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga e'tiborni qaratmoqdalar, bunga javoban yoshlar faqat tinimsiz izlanishlari, o'qishlari, ilm sirlari mukammal egallashlari shart. Zero, Hadisu sharifda ham zikr etilganidek, "Ilm o'rganish har bir musulmon uchun farzdir". Ilg'or g'oyalar egasi bo'lish uchun tafakkurni shunday mashq qildirish lozimki, toki uning yordamida kundalik dolzarb masalalarga, xalq manfaatiga xizmat qiluvchi solih ishlarni amalga oshirish choralari borasida turli-tuman fikrlarni yuritish imkoniyati bo'lsin. Bu holat har qanday g'ayri-tabiiy fikrlarga o'z o'rniga aql-idrok bilan munosib javob berish, taraqqiyotimizga g'ov bo'luvchi yot va zararli fikrlarga nisbatan immunitetni shakllantirish, turli xil dogmatik qarashlarga ega bo'lgan shaxslar bilan asosli va tanqidiy munozaralar olib borib, o'z nuqtai nazarining to'g'riligini to'la asoslash qobiliyatini o'stiradi.

1-bob bo'yicha xulosa.

Yuqoridagi bobda biz quyidagi xulosalarga keldik.

Tajribada ko'rsatilganidek umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, ahloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Rahbarlik qilinmagan faoliyat esa biryoqlama yoki salbiy ta'sir etishi mumkin.

Tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan maqsad aniq bo'lsa va bu maqsadga erishish uchun odam astoydil harakat qilsa kutilgan natijaga erishiladi.

Pedagogik-psixologik qonuniyatlarni muayyan reja asosida olib boriladigan tekshirishlar tufayligina xolisona aniqlik kiritish mumkin.

Pedagogik tajriba ham bir qator shartlarga amal qilgan holda tashkil etiladi.

Xususan:

Tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;

tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;

Tadqiqot ob'ektlari va usullarining to'g'ri tanlanishi;

Tajriba o'tkazilish vaqti hamda davomiyligini aniqlanishi;

Zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;

Tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, shaxs faqat faoliyatda rivojlanadi, faoliyatdan tashqarida rivojlanish yo'q. Bola juda yoshligidan boshlab kattalar yordamida tashqi muhit bilan turli xil aloqada bo'ladi. Maktab yoshida bu aloqalar o'qish va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat bilan bog'lanadi va bular rivojlanish uchun manba sanaladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat shaxsning aqliy va irodaviy rivojlanishiga ta'sir etadi. Demak, bola ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham shakli va mazmuni bilan o'zgarib boraverar ekan.

II-bob. Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash texnologiyasi.

2.1. Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash usullari.

O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida oliy pedagogik ta'lim muhim bo'g'in hisoblanadi. Unda har tomonlama barkamol o'qituvchilarni voyaga yetkazish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarda (talabalarda) iqtidorli o'quvchilarga ta'lim berish ko'nikmasini shakllantirish asosiy masalalardan biridir. Bu o'rinda mazkur masalaning metodologik asoslarini belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Iqtidorli o'quvchilar tushunchasi muayyan layoqat, qobiliyat va sifatga ega bo'lgan yoshlarni ifodalaydi. Bunda o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolaning iqtidorga egaligi nazarda tutiladi. Chunki mazkur yoshgacha shaxs umumta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim oladi. Aynan shu davrgacha o'quvchilarning iqtidori shakllanish va rivojlanish bosqichida bo'ladi. Bu masalaga bizning yondashishimiz quyidagicha:

- 1) maktabgacha ta'lim muassasasida – shaxsda iqtidorning yuzaga kelishi;
- 2) umumta'lim muassasalarida – shaxsda iqtidorning shakllanib borishi;
- 3) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasasida – shaxsda iqtidorning rivojlanishi;
- 4) oliy ta'lim muassasasida – shaxsda iqtidorning takomillashuvi;
- 5) faoliyat davomida – shaxs iqtidorining namoyon bo'lishi.

Bizni bo'lajak o'qituvchilarning umumta'lim maktablari va akademik litsey, kasb-hunar kollejlari ta'lim olayotgan iqtidorli o'quvchilarga ta'lim berish ko'nikmasini shakllantirish muammosi qiziqtiradi. Negaki muayyan iqtidorga yega bo'lgan o'quvchiga ta'lim berish alohida ko'nikmaga yega bo'lishni taqozo yetadi. Shu ma'noda bo'lajak o'qituvchilarda bunday ko'nikmani shakllantirish metodologiyasi mamalakatimizda mavjud. Bu metodologiya asosiylarini quyidagilar tashkil qiladi:

- 1) Prezident I.A.Karimovning asarlari, nutqlari va ma'ruzalarida ta'lim-tarbiyaga oid bayon qilingan konseptual yondashuvlar;
- 2) ta'lim-tarbiyaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
- 3) pedagogik ma'naviy meros;
- 4) pedagogik ilmiy tadqiqodlar;
- 5) milliy va umumshaxsiy ta'lim-tarbiya tajribasi.

Mazkur metodologik asoslarda iqtidorli o'quvchilarga ta'lim berish uchun o'qituvchining bir qator ko'nikmaga ega bo'lishi o'z ifodasini topgan. Shu ma'noda biz bo'lajak o'qituvchilarda ko'nikmaning quyidagi shakl va ko'rinishlari mavjud bo'lishi kerak, — deb hisoblaymiz

1) boshlang'ich sinflar iqtidorli o'quvchilariga ta'lim berish uchun:

- ✓ har bir bola timsolida shaxsni ko'rish;
- ✓ o'quvchilarni yozish, chizish va hisob bo'yicha savodxon qilish;
- ✓ o'quvchilarda bilim olish hissini uyg'otish;
- ✓ o'quvchilarda axloq qoidalariga rioya qilish ko'nikmasini shakllantirish

2) yuqori sinflar iqtidorli o'quvchilariga ta'lim berish uchun:

- ✓ o'quvchilarga bilimlarning zarur hajmini berish;
- ✓ o'quvchilarga mustaqil fikrlashni o'rgatish;
- ✓ o'quvchilarda tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirish;
- ✓ o'quvchilarni hayot va faoliyatga tayyorlash;
- ✓ o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish;
- ✓ o'quvchilar iqtidorini rivojlantirish

3) akademik litsey va kollejlarda iqtidorli o'quvchilariga ta'lim berish uchun:

- ✓ o'quvchilarni intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirish;

- ✓ o'quvchilarga chuqur bilim berish;
- ✓ o'quvchilarni tanlagan kasb-hunar asoslari bilan chuqur qurollantirish;
- ✓ o'quvchilarning o'z iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun ilmiy-metodik yordam berish.

4) oliy o'quv yurtlari iqtidorli talabalariga ta'lim berish uchun:

- ✓ kasbiy va umumiy fanlar bo'yicha talabalarga chuqur bilim berish;
- ✓ mutaxassislik mahorati, ko'nikmasi va malakasi bilan talabalarni qurollantirish;
- ✓ talabalar iqtidorini ro'yobga chiqarishga ko'maklashuvchi nazariy, ilmiy va metodik bilim berish.

Diqqat qilinsa, bu ko'nikmalar bo'lajak o'qituvchilardan maxsus tayyorgarlikni taqozo etadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida quyidagilarni amalga oshirish zarurat bo'lib turibdi:

- 1) talabalarni iqtidorli o'quvchilarga ta'lim berishga tayyorlash bo'yicha dastur ishlab chiqish;
- 2) pedagogik va mutaxassisligi turkumidagi fanlarni iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha mavzular bilan boyitish;
- 3) "Iqtidorli o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish asoslari" fanni nazariy va amaliy maxsus kursini tashkil qilish
- 4) "Iqtidor" ixtiyoriy talabalar to'garagini yo'lga qo'yish va unda individual mashg'ulotlar olib borish;
- 5) mustaqil ta'lim shaklini iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash asoslarni o'rganishga yo'naltirish;
- 6) iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash mahoratini rivojlantirish bo'yicha talabalar bilan individual ishlash.

Kuzatishlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimida bu tadbirlarni amalga oshirishning nazariy, metodik, texnik va texnologik asoslari mavjud. Bu imkoniyatlar ayniqsa ta'lim muassasalarida malakali pedagogik kadrlar faoliyat yuritayotgani bilan yanada kengayadi. Shu jihatdan iqtidorli o'quvchilarga ta'lim berish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish u qadar mushkul ish emasligini ta'kidlab o'tish joiz, zero, mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimi iqtidorli o'quvchilar layoqati va qobiliyatini ro'yobga chiqaruvchi malakali o'qituvchilarga ega bo'lish imkonini beradi. Bunday ta'lim tizimi uzluksiz ta'lim bosqichida o'zining amaliy natijasini berayotganligi bilan diqqatga sazovordir. Demokratik va mustaqil jamiyatimizga mustaqil, tanqidiy fikrlovchi, o'z dunyoqarashiga ega, vujudga kelgan muammolarni ijodiy hal eta oladigan, aqliy va ma'naviy jihatdan rivojlangan barkamol shaxslar nihoyatda zarur. Ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish bo'yicha tub izlanishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni davlat siyosatining asosiy, ustivor yo'nalishi deb e'lon qildi va bu borada jiddiy amaliy ishlar olib borilmoqda. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar shaxs paradigmasiga o'tilganligida o'z ifodasini topmoqda. Mustaqil Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, milliy ma'naviy qadriyatlarni anglash ko'nikmalarini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o'quv predmetlari katta imkoniyatlarga ega. O'zbekistonda ta'lim tizimining mavjud holati uning mazmunini belgilash sohasida ijobiy qadamlar qo'yilganligidan dalolat bermoqda. Shu bilan bir qatorda, eskirib qolgan metodlar va texnologiyalardan voz kechish jarayoni bir qadar sekin kechmoqda. O'qitishning yangicha professional usullaridan foydalanish jarayoni ilmiy-metodik jihatdan yetarli darajada ta'minlanmagan. Hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning o'zgarishi o'quvchini jadal rivojlanuvchi, zamon talablariga moslashtiruvchi yangi pedagogik texnologiyalarning mavjud bo'lishini talab etadi.

Bugungi kunga qadar amaldagi o'quv jarayonida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida monologik ish uslubi hukmronlik qilmoqda: hamon o'qituvchi gapiradi, o'quvchi tinglaydi. O'quvchi faqatgina belgilab qo'yilgan muayyan vaqt mobaynida o'z fikrini bayon qilishi mumkin. Shunda ham uning aytgan fikrlari mustaqil bo'lmaydi. O'quvchi tomonidan bayon qilingan fikr asosan o'qituvchi uchun muhim bo'lishi kerak. Bu fikr o'quvchi uchun qanchalik muhimligi inobatga olinmaydi. Pedagogik jarayonni dialoglashtirish birinchi navbatda mavjud vaziyatlarda o'qituvchi bilan o'quvchi mavqeining teng bo'lishiga erishishni talab qiladi. Bu mavqe o'quv jarayonining teng huquqli ishtirokchilari, o'zaro hamkorlik hamda muloqot jarayonining sub'ekti tarzida namoyon bo'lishi kerak. O'quv faoliyati mayllarini aniqlash masalasi bugungi kunda o'quvchining o'quv faoliyatiga nisbatan mayllarini aniqlash didaktikaning markaziy masalalaridan hisoblanadi.

Bu esa o'z navbatida to'g'ridan-to'g'ri o'quv-biluv jarayonida o'quvchi faoliyatini individuallashtirish bilan bog'liqdir. Quyidagi uch shartga amal qilingandagina o'quvchida egallangan bilim va tajribalarga asoslangan o'quv mayllari hosil bo'lishi mumkin:

O'quvchi har doim menga nimani o'rgatsalar o'sha narsani o'rganish qiziqarli, degan uy bilan mashg'ulotlarga ishtirok etishi; Meni kim o'qitishi ahamiyatli, degan savolni o'z oldiga qo'ya bilishi; Meni qanday o'qitishlari muhim, degan savolga javob topishi kabilar. Bugungi kunga qadar mutaxassislar juda kam ahamiyat bergan muhim bir dalil ham mavjudki, bu dalil o'quvchida o'quv mayllarining jadal rivojlanishida alohida o'rin egallaydi. O'qituvchi o'quvchilar uchun har doim kattalar jamiyatining a'zosi hisoblanadi. U o'z o'quvchilari bilan ularning ota-onalariga nisbatan ko'proq muloqotda bo'ladi. Bu shak-shubhasiz o'quvchining kattalar olami bilan aloqa o'rnatishiga alohida ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim berishda individual ta'limdan foydalanish uning samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatga ega. O'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlariga qarab bilimlarni taqdim etish imkoniyatini beradi. Bu esa o'quvchining kasb

tanlashlari uchun qulay pedagogik sharoit yaratish, ularning tanlovlarini qo'llab-qo'vvatlashga ko'maklashadi. Shu bilan birga o'quvchilarning mustaqil, ongli tanlovlarini ta'minlaydi. Buning natijasida o'quvchilar o'zlarining shaxsiy hayot yo'llarini loyihalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, ularda tadqiqotchilik, loyihalash, erkin mulokot va tanlov ko'nikmalari tarkib topadi. Tabaqalashtirilgan bilimlar yordamida ular o'zlarining individual kasbiy yo'nalishlarini belgilashga intiladilar. Maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kasbiy sohalarga ajrashi maqsadiga yo'naltirilgan pedagogik harakatlar ixtisoslashgan ta'lishi shaxsga yo'naltirilgan o'quv jarayoni sifatida tarkib toptirish imkogani beradi. Bu esa o'quv jarayonini individuallashtirishning samarali shakli hisoblanadi. Buning natijasida har bir o'quvchining shaxsiy quvvatlari namoyon bo'ladi va ro'yobga chiqadi. Har qanday shisoslashgan ta'lim jarayoni birinchi navbatda o'quvchi shaxsiga yonaltirilgan uni rivojlantiruvchi o'quv modelidir.

Agar o'quv jarayoni ktisoslashtirilsa, ko'pvariantlilik asosida tarkib toptirilsa o'quvchilarda ko'p qirrali faoliyatning rivojlanishiga asos bo'ladi. Bu kasbiy yo'nalish va rivojlanishning individual yo'liga ega bo'lish demakdir. Bu jarayonda o'quvchi bilan pedagogik-psixologik hamkorlik qilish psixologlar bilan o'quvchilar orasida amalga oshirilib, unda o'quv-tarbiya jarayonining sub'ektlari sifatida ota-onalar va o'qituvchilar ishtirok etishlari lozim. Shaxsga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishdan iborat. Bu jarayonda ularning psixologik bilimdonliklarini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi turlicha qiziqish va intilishlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashi, ular bilan ishchan muloqotga kirishishi lozim. Chunki zamonaviy pedagogik jarayonda turlicha rivojlanish me'yoriga ega bo'lgan o'quvchilar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji mavjud. Bunda: o'rtacha statistik, ijtimoiy-madaniy, individual-shaxsiy ko'rsatgichlar inobatga olinadi. Zamonaviy ijtimoiy madaniy vaziyatlarda o'qituvchilar bilan bir qatorda, ota-onalarning ham o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasidagi o'rni ortib bormoqda. Lekin amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdagi

ko'pgina ota-onalar o'z farzandlarining ta'lim-tarbiyasida pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligidan qiynaladilar. Ularning pedagogik-psixologik madaniyatlari juda past bo'lib, farzandlarining to'g'ri ixtisoslapguvi, o'ziga mos ta'lim yo'nalishini tanlashi uchun zarur bo'lgan maslahatlarni bera olmaydilar. Bunday sharoitda ota-onalar bilan ishlash pedagogik-psixologik hamkorlikning muhim sharti sifatida amalga oshirilishi, psixologlar hamda sinf rahbarlari ular bilan turli maslahatlar, suhbatlar, seminarlar, treninglar tashkil etishlari lozim. Bunday pedagogik-psixologik chora-tadbirlar davomida ota-onalarning muloqot, hamkorlik, ziddiyatlarni bartaraf etish ko'nikmalarining rivojlanishiga alohida qaratilishi talab qilinadi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmokedaki, bugungi kunda ayrim o'qituvchilar axborotlarni uzatuvchi sifatida faoliyat ko'rsatib, o'quvchilar bilan hamkorlik qilish darajalari va shakllari hakida mutlaqo o'ylab ko'rmayaptilar. Iqtidorli bolalarni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash va ular bilan hamkorlik pedagogik jarayonning o'ziga xos jihatidir.

Iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash va ularga individual ta'lim berish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish lozim:

- ✓ har bir o'quvchi uchun individual, tabaqalashtirilgan ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- ✓ o'quvchilarda o'zaro mos keladigan o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish;
- ✓ o'quv jarayonida iqtidorli o'quvchilarning ruhiy-jismoniy salomatliklari va intellektual quvvatlarini muhofaza qilish va mustahkamlash;
- ✓ iqtidorli bolalar bilan ishlaydigan o'qituvchilar va ularning ota-onalari pedagogik-psixologik bilimdonliklarini oshirish.
- ✓ Modernizatsiyalashgan ta'lim tizimida pedagogik-psixologik hamkorlik shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishi lozim.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash markazi» to'g'risidagi namunaviy nizom

I. Umumiy qoidalar

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari qoshida faoliyat ko'rsatuvchi "Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash markazi" (keyingi o'rinlarda Markaz) ning maqsad va vazifalari belgilangan.

II. Markazning maqsadi va vazifalari

1. Markazning maqsadi quyidagilardan iborat:

- ✓ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga keng tadbiq etish, kelajakda O'zbekiston Respublikasini har tomonlama rivojlangan buyuk davlatga aylantirish uchun xizmat qiladigan yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab yetishtirish;
- ✓ mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirish, yuqori malakali ilmiy kadrlar sonini ko'paytirish uchun zamin tayyorlash;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirishdan iborat.
- ✓ Markazning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
- ✓ iqtidorli va iste'dodli yoshlarni aniqlash, ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish va intelluktal salohiyatini o'stirish;
- ✓ o'quvchilarni fan sohalariga qiziqtirish va ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish;
- ✓ o'quvchilardagi noyob qobiliyatlarni namoyon qilish uchun imkoniyatlar yaratish;
- ✓ o'quvchilarning mustaqil bilim olish va o'z ustida ishlash samaradorligini oshirish;
- ✓ iqtidorli o'quvchilarning respublika va xalqaro fan olimpiadalari va musobaqalari, respublika miqyosidagi konferensiya, ko'rik-tanlov va anjumanlarda faol ishtirok etishlarini ta'minlash;
- ✓ o'quvchilarni ilmiy-konstruktorlik ishlarini bajarish, asbob-uskunalar, qurilmalar, mashina-mexanizmlar modellari va maketlarini yaratishga jalb qilish;

- ✓ o'quvchilarning o'quv dasturlari hajmida tabaqalashtirilgan va ma'lum ixtisoslikka yo'naltirilgan keng kamrovli va chuqur bilim olishlariga yordam berish;
- ✓ o'quvchilarning ilmiy dunyoqarash, mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ✓ o'quvchilarda tashabbuskorlik va tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ✓ o'quvchilarning kutubxonada darsliklar, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash hamda ularni tahlil qilish, xulosalar chiqarishga o'rgatish;
- ✓ o'quvchilarning o'z fikr-muloxazalarini jamoatchilik oldida erkin ifodalash, dalil keltirib isbotlash yoki rad etish usullarini o'rganishlariga ko'maklashish;
- ✓ o'quvchilarda milliy va umumshaxsiy qadriyatlarga muhabbatni kuchaytirish, ma'naviy-axloqiy, barkamol shaxs qilib tarbiyalash;
- ✓ iqtidorli o'quvchilar banki va monitoringini shakllantirish.

III. Markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlari

«Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash markazi» faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ✓ ilmiy-tadqiqot institutlari, homiy oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda o'quvchilarni ilmiy izlashnislarga jalb etish;
- ✓ tajribali mutaxassislar, malakali o'qituvchilar rahbarligida fan olimpiadalariga tayyorgarlik ishlari olib borish;
- ✓ ilmiy-konstruktorlik faoliyatini tashkil etish;
- ✓ o'quvchilarni turli konferensiyalar, ko'rik-tanlovlar, tele-viktorinalarda ishtirok etishlarini ta'minlash;
- ✓ iqtidorli o'quvchilar banki va monitoringini shakllantirish;

IV. Markaz ishini tashkil etish va boshqarish

1. Markaz ta'lim muassasasining Ilmiy-Pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan yillik ish reja va dastur asosida ish olib boradi.

2. Markazda faoliyat ko'rsatish uchun iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilar bilan ishlash tajribasi va malakasiga ega bo'lgan ta'lim muassasasining o'qituvchilari, homiy oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlarining olimlari va mutaxassislari jalb qilinadi.

3. Markazga qobiliyatli, fanlarni chuqur o'zlashtirgan o'quvchilar a'zo bo'ladi. Bunday o'quvchilar aniqlanib, ularning qobiliyati va qiziqishlariga qarab guruhlariga ajratiladi.

4. Har bir guruhga (ayrim o'quvchilarga individual holda) rahbar belgilanadi.

5. Markaz ishiga rahbarlik qilish belgilangan ma'sul xodim tomonidan amalga oshiriladi.

V. Markazning moliyaviy ta'minoti

1. Markazning moliyaviy ta'minoti ta'lim muassasasining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

2. Markaz Nizomda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun turli korxona, tashkilot, jamg'arma, yuridik va jismoniy shaxslarni xomiy sifatida jalb qiladi.

3. Markaz tomonidan ishlab chiqilgan asbob-uskuna va qurilmalarni sotish orqali topilgan mablag'lar markaz faoliyatini rivojlantirish

Iqtidorli bolalar bilan ishlash maqsadi va vazifalari.

Maqsadi: bolalar iqtidorini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratish, ulardagi mavjud qobiliyatlarni tizimlashtirish.

Vazifalari:

1. Psixologik – pedagogik metodikalar orqali iqtidorli bolalarni aniqlash.

2. Dars paytida bolalarning individual xususiyatlariga qarab qobiliyatlarini aniqlash (tabaqalashtirish).

3. Dars va darsdan tashqi ishlarda bolalar iqtidorini, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi chora – tadbirlarni tanlash.

4. O'quvchilarning darsdan tashqi ijodkorlik ishlarini tashkillashtirish.

2. Iqtidorli bolalar bilan ish olib borish tamoyillari.
 1. Ta'limni individuallashtirish.
 2. Ta'limni rivojlantirish tamoyili.
 3. Faoliyat turlariga qulay sharoitlarni yaratish tamoyili.
 4. O'quvchilar qobiliyatlarining faoliyatda namoyon bo'lishiga imkoniyatlar yaratish.
 5. Darsdan tashqi faoliyatlar(ishlar) imkoniyatlaridan unumli foydalanish.
 6. Ta'limning rivojlantiruvchilik tamoyili.
3. Bu ishlarni amalga oshirishda ishtirok etuvchilar.
 1. Maktab ma'muriyati (direktor va uning o'rinbosarlari).
 2. Yuqori kategoriyaga ega o'qituvchilardan iborat ichshi guruh a'zolari.
 3. Maktab pedagogik kengashi a'zolari.
 4. Fan o'qituvchilari.
 5. Sinf rahbarlari.
 6. To'garak va seksiya boshliqlari.

4. Iqtidorli bolalar bilan olib boriladigan ishlar rejasi.

Shakllari	Muddati
Fan olimpiadalari	Yiliga 1 marta
O'quvchilar muvaffaqiyatlari bo'yicha umummaktab konferensiyasi	Yiliga 1 marta
Fan haftalari	Yillik reja buyicha
Iqtidorli bolalar bilan olib boriladigan ishlar buyicha o'qituvchilarning ijodiy hisobotlari	Mart oyi ped.kengashi
Maktab ichki nazorati	Yillik reja buyicha
Sport seksiyalari va to'garaklarining ijodiy hisobotlari	Yiliga 1 marta
Ijodiy konkurslar, ko'rgazmalar	Yiliga 1 marta

Maktab direktori uchun tavsiyalar.

Yillik ish rejadagi iqtidorli bolalar bilan ishlash buyicha ishlarni tashkillashtirish va ularning ta'lim tizimi qatnashuvchilari tarafidan bajarilishini nazorat qilish;

Iqtidorli bolalarni qo'llab-quvatlash fondini tashkil etish.

Maktab direktori o'rinbosarlari va psixologlari uchun tavsiyalar.

- ✓ ta'lim jaryonida iqtidorli bolalar bilan bog'liq ishlarni boshqarish va yo'lga qo'yish (doimo);
- ✓ iqtidorli bolalar bilan ishlash buyicha seminarlarni tashkillashtirish va o'tkazish.(yilda bir marta);
- ✓ iqtidorli bolalar bilan ishlayotgan o'qituvchilar ishlarini muvofiqlashtirish (doimo);
- ✓ iqtidorli bolalar uchun individual ta'lim berish dasturlarini ishlab chiqishda fan o'qituvchilari va sinf rahbarlariga yordamlashish;
- ✓ iqtidorli bolalar bankini yaratish;
- ✓ bolalar iqtidorini aniqlash buyicha tashxis materiallarini to'plash;
- ✓ ushbu muammo bo'yicha to'plangan pedagogik materiallarni tizimlashtirish;
- ✓ iqtidorli bolalar bilan ishlash bo'yicha metodik tavsiyalarni tayyorlash;
- ✓ maktab fan haftaliklarini va olimpiadalarini(har yili) o'tkazishni rejalashtirish va o'tkazish;
- ✓ fanlar buyicha material, masala, topshiriqlarning murakkablik darajasini o'rganish, qayta ishlash;
- ✓ metodik ishlar stendiga iqtidorli bolalar bilan ishlash buyicha ma'lumotlar berish;
- ✓ Iqtidorli bolalar bilan ishlayotgan o'qituvchilarning ijodiy hisobotlarini tayyorlanishiga rahbarlik qilish.

Fan o'qituvchilari uchun tavsiyalar.

- ✓ o'z fani buyicha bolalar iqtidorini aniqlash;
- ✓ fanlar buyicha material, masala, topshiriqlarning murakkabligi, ijodiyligi, ilmiy-tadqiqot darajalarini o'z ichiga olgan holda iqtidorli bolalar bilan ishlash buyicha tematik reja va dasturlarni tuzish;
- ✓ iqtidorli bolalar bilan individual ishlash bo'yicha tashkiliy ishlar;
- ✓ maktab va tuman bosqichi olimpiada, konkurs, viktorina, konferensiyalarga o'quvchilarni tayyorlash;
- ✓ yil davomida iqtidorli bolalar bilan olib borgan ishlar bo'yicha pedagogik kengashda hisobot berish;
- ✓ o'quv kabinetlarida materiallarning murakkablik darajasi buyicha kartoteka yaratish;
- ✓ fan bo'yicha ota-onalarga bolalar qobiliyatlarini rivojlantirish buyicha maslahatlar berish.

Sinf rahbarlari uchun tavsiyalar.

- ✓ bolalarning umumiy iqtidorliklarini aniqlash;
- ✓ sinf rahbari daftarchasida(kundaligida) fan o'qituvchilari, tugarak boshliqlari, ota-onalar tarafidan o'tkazilgan tashxis natijalari iqtidorlik ning sohalari buyicha ma'lumotlar tablitsa shaklida rasmiylashtirilishi kerak;
- ✓ sinfda iqtidorli bolalar qobiliyatlarini namoyon etishga imkoniyat yaratgan holda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.

2.2. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda oila maktab hamkorligi.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasi yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida muhim dasturilamal bo'ldi. Mamlakatimizda keying yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqazo etadi.

Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek:

birinchidan, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllanagan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni anglashsingdirish;

ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfiylikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan yagona g'oya – milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

uchinchidan, yoshlarni baynalminal, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat tug'dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash;

to'rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

beshinchidan, yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash

O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir. Davlatimiz rahbari ko'rsatib berganidek, ta'lim-tarbiya sohasidagi

islohotlar:

birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga;

ikkinchidan, insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga;

uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsni shakllantirishga;

to'rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga

beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Mazkur Konsepsiyada taraqqiyotimizning ma'naviy – axloqiy negizi milliy va umuman insoniy qadriyatlar uyg'unligi ekanligi e'tirof etiladi, milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o'zaro aloqalar uyg'un yo'nalishlari belgilab olindi: Milliy tarbiya yo'nalishi orqali o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliyg'urur, millatlararo muloqat madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik kfazilatlari shakllantiriladi. Umuminsoniy yo'nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigiyenik va boshqa tarbiya yo'nalishlari amalga oshiriladi. Bu Konsepsiyaning milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablariga mosligini ta'minlaydi. Sog'lom oilada barkamol avlod voyaga yetadi. Mamlakatimizda oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, yosh oilalar uchun qulay turmush sharoitini yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar ana shu ezgu maqsadga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2009 yil 13 apreldagi "Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda 2009 yil 1 iyulda qabul qilingan "2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida"gi

qarorlari bunday xayrli ishlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qilayotir. Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda maktab va pedagoglarning asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning, "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" va respublika rahbariyatining dasturiy fikrlarimazmunidan kelib chiqqan bo'lishi kerak, ya'ni: maktabda bolaga biron bir kasb-korni egallashi uchun mustahkam poydevor yaratish; o'quvchi yoshlarning sport turlari bilan shug'ullanishlariga yordam berish, ularning bo'sh vaqtlarini, imkoniyatlarini hisobga olgan holda to'g'arak mashg'ulotlarini tashkil qilish; bolalarga ta'lim berishni ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'quv uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayonlarini jahon andozalariga mos ravishda ta'minlash; o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo'yicha kasb asoslariga yo'naltirish va ta'limda tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish; yosh oilalar bilan ishlash, tibbiy-tarbiyaviy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy tushunchalar berish uchun maxsus tadbirlarni amalga oshirish; o'z hududidagi mahalla jamoalarining faoliyatini tarbiyaviy maqsad yo'lida muvofiqlashtirish; tarbiyasi og'ir, qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash, oilalarga pedagogik yordam berish; bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o'rganib, tajribalarini ommalashtirish; o'qishni va ishlashni xohlamaydigan, bezorilik yo'lga kirib ketgan o'smirlarni hisobga olib, ularga tegishli tashkilotlar bilan birgalikdazarur choralar ko'rib, ota-onalar yig'ilishlaridamuhokama qilish; tarbiya sub'yektlari bo'lmish huquqiy, tibbiy, ijodiy uyushmalar, yoshlar, tabiatni muhofaza qilish va "Ekosan", "Qizil yarim oy", barcha jamg'arma va jamoatchilik markazlari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari, nodavlat tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalari, mahalliy boshqaruv idoralarining bola tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyat va javobgarligini muvofiqlashtirish; turar joyda va mahallada olib borilayotgan tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlari markazi

maktab bo'lishiga erishish; o'quvchi-yoshlar, ota-onalar, jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ'ib qilish, aqidaparastlik va milliy taraqqiyotimizga zararli g'oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashni tashkil qilish; maktab negizida pedagogik, huquqiy, psixologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi "Ota-onalar universitetlari" faoliyatini tashkil qilish.

Oila. Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, barcha tasavvur va e'tiqodiga aloqador bo'limlari majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda – oila haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiyaning omili va shart-sharoitidir. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, shaxsning hayotiy yo'nalishlari, e'tiqodi va iymoni avvalo oila muhitida shakllanadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Har bir shaxs oilaning jamiyatdagi o'rnini va funksiyalarini, qadr qimmatini anglamasdan, Vatanning ostonadan boshlanishini tushunmasdan turib, Vatan tuyg'usini tom ma'noda xis qila olmaydi. Bu ish asosan har bir o'zbek oilasidagi tarbiya an'analari va ularni takomillashtirish, milliy qadriyatlarni turmush tarzining ajralmas bo'lagiga aylantirish, muloqot madaniyatining Sharqona ko'rinishlari bilan zamonaviy shakllarini uyg'unlashtirish, mehnat tarbiyasi, uning farzandlar farovon turmush kechirishining muhim tamoyili sifatida qadrlanishiga erishishi orqali amalga oshirish mumkin.

Bundan tashqari, shaxsning barkamolligi har bir shaxs ongida oilaning muqaddasligi, Vatanning aslida oiladan boshlanishi, shu bois uni sevish va nikohni muqaddas bilish zarurligini, oilaning jamiyat hayotida tutgan o'rnini va funksiyalarini tushuntirish orqali ro'y berishi inobatga olinadi.

Bolalarda yoshlikdan xalq va yurt taqdiriga befarq bo'lmaslik psixologiyasini shakllantirish uchun bola hayotining dastlabki onlaridan boshlab, predmetlar olami bilan tanishishi, o'yinchoqlar olami, tengqurlari bilan bo'ladigan o'yinlarining tarbiyalovchi xususiyatlariga ahamiyat berish zarur. Shaxsiyatga zarar keltiruvchi, odamlar o'rtasida ziddiyatlarni va talofatlarni keltiruvchi "jangari" o'yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlar ko'rishlarini imkon darajasida cheklash, bu o'yinlarning

psixologik hamda pedagogik ekspertizalari bo'yicha ota-onalarga aniq ko'rsatmalar berish zarur. Sharqona odob va o'zaro munosabatlar tamoyillarini aks ettiruvchi turli o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmlari o'yinchoq-kitobchalar, xalq milliy folklori va ertaklari asosida yaratilgan multfilmlar ilk yoshlikdan bolalardagi mafkuraviy qarashlarning to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Masalan, bolalar o'rtasida mashhur bo'lgan "Zumrad va qimmat", "Yoriltosh", "Xo'ja Nasriddinning sarguzashtlari" kabi qator ertaklar orqali oilada bolalarni yaxshidan yomonni, mehr-sahovatdan xudbinlikni farqlashga o'rgatish va shu orqali milliy udumlarning xalq orzu-istaklari va intilishlari bilan bog'liqligini yaqqol ko'rsatish mumkin.

Ota-onalar savodxonligi ham bu o'rinda katta rol o'ynaydi. Eng avvalo ularda sog'lom tafakkur va milliy g'oyalarni shakllantirish kerakligini alohida ta'kidlash mumkin. Bunday savodxonlik ota-onalik roli va funksiyalari mohiyatini to'g'ri tushunish, yangi farzand dunyoga kelishi va kamol topib rivojlanishiga oid qonuniyatlarni bilish, oilaviy munosabatlar doirasida milliy urf-odatlarimiz va an'alarimizning eng nodirlarini turmushning barcha sohalariga singdirish orqali, bolalarda qadriyatlarga mehr-muhabbatni uyg'otish, balog'at yoshiga yetgan farzandlarni oilaviy hayotga tayyorlash kabi qator mas'uliyatli vazifalarning tub ma'nosini bilish va ularga amal qilish nazarda tutiladi. Bunday bilim va tasavvurlar majmui otaga qay darajada zarur bo'lsa, onaga ham shu tarzda zarur va ahamiyatlidir. Chunki bir qarashda sanab o'tilgan funksiyalar odatiy, ularga shaxs hayoti mobaynida avtomatik tarzda o'rganib ketadiganday tuyulsada, aslida ota-onalik shunday mas'uliyatli vazifaki, uning jamiyatimiz manfaatiga mos tarzda amalga oshirilishiga shaxs ham ma'naviy jihatdan, ham psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak.

Kasbni puxta egallash va fidokorona mehnat qilish uchun ilm qanchalik zarur bo'lsa, fozil farzandlar tarbiyalash va ularni shaxslarga nafi tegadigan darajada yetuk qilib tarbiyalash uchun ham ilm-bilim shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun bu fikrlarning naqadar to'g'riligi va ayniqsa, ayol kishi uchun savodlilik va ilmning zarurati to'g'risida o'z vaqtida o'rta asrning ko'zga ko'ringan iste'dodli

shoiralaridan biri Abdibek Sheroziy shunday yozgan edi: “Ilm – ayol uchun ziynat. Aqlini nodonlikdan qutqargan har bir ayol nomus, izzat, ayollik qadrini tushunib yetadi. Bunday ayol hech bir ishda adashmaydi. Ilmsiz ayol esa bola tarbiyalashda turli xatolarga yo‘l qo‘yadi”.

 **Bobolar va momolar** o‘zbek oilasida shaxsni tarbiyalashda bevosita ishtirok etadilar. Azaliy turkiy udumga binoan ota-onadan ham ko‘ra bobobuvilarning tarbiyaviy ta’siri kuchliroq bo‘ladi. Masalan, Amir Temur shahzodalarning tarbiyasi bilan ularning onalari emas, ulug‘ bibilari-buvilari shug‘ullanishini lozim topgan. Shunga ko‘ra, Saroy Mulk xonim Shohruh Mirzoni, suyakli nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug‘bek Mirzolar tarbiyasini o‘z bo‘yniga olgan.

Shuning uchun ham yurtimizda oila hamisha davlat himoyasida va oliy qadriyat sifatida e‘zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o‘chog‘i bo‘lgani uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e‘tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarli, xukumat bola tarbiyasida ota-onalar mas’uliyatini oshirish uchun har yili hayrli tadbirlar ishlab chiqmoqda. Respublikamizda yillarning “Oila”, “Ayollar”, “Sog‘lom avlod”, “Onalar va bolalar”, “Qariyalarni qadrlash”, “Salomatlik” yili deb elon qilinishi, “Oila” ilmiy-amaliy Markazining faoliyat ko‘rsatayotganligi jamiyatda, yoshlar tarbiyasi borasida oilaning roli va mas’uliyatini oshirishga ana shunday muhim tadbirlardandir.

 **Ijtimoiy ustanovkalar.** Sof psixologik ma’noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o‘zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm – bu ijtimoiy ustanovkalardir. Bu – shaxsning atrof muhitida sodir bo‘layotgan ijtimoiy hodisalarni, ob’ektlarni, ijtimoiy guruhlarini ma’lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o‘rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o‘zgartirishga aloqador kategoriyadir. Ijtimoiy ustanovkalar haqida batafsil ma’lumotlar oldingi mavzular (boblar)da bayon etilgan, bu o‘rinda biz, uning faqat dunyoqarashlar o‘zgarishiga aloqador mexanizm sifatidagi rolini ta’kidlamochimiz, xolos.

Ijtimoiy ustanovkalarga xos bo‘lgan umumiy qonuniyatlardan biri, bu uning

uzoq muddatli xotira bilan bog‘liqligidir. Ayni vaziyatlarda shakllangan obrazlar uzoq muddatli xotirada saqlanib, u yoki bu vaziyatda dolzarblashadi, ya’ni “jonlanadi”. Masalan, ba’zi bir etnik stereotiplar ana shunday xotiradagi mavjud obrazlar hisobiga shakllanadi. Demak, ijtimoiy ustanovka ob’ektga hamda konkret vaziyatga bog‘liqdir.

Shakllangan ijtimoiy ustanovkaning shaxs hayoti mobaynida o‘zgarishi esa, muhim ijtimoiy-psixologik ahamiyatga egadir. Amerikalik olim Xovland fikricha, ijtimoiy ustanovka o‘rgatish yo‘li bilan o‘zgarishi mumkin. Ya’ni o‘quvchilardagi turli ustanovkalarni o‘zgartirish uchun rag‘batlantirish yoki jazolash tizimini o‘zgartirish lozimdir. Ikki shaxs yoki shaxs bilan guruhning ustanovkalari mos kelmay qolgan sharoitda esa tomonlardan biri ongli ravishda o‘z ustanovkalarini o‘zgartirishi shartdir. Aks holda nomutanosiblik tamoyiliga ko‘ra, shaxslararo nizo yoki kelishmovchilik paydo bo‘lishi muqarrardir.

Ijtimoiy ustanovkalarni o‘zgartirishning eng sodda va qulay yo‘li – bu ayni vaziyatlar va ulardagi ta’sirlarni *qaytarishdir*. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida shaxs ongida uzoq muddatli xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo‘lganda, *ob’ektivlashadi*, ya’ni o‘z kuchini va mavjudligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham agar chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, u yerda biror g‘oyani ongga singdirish uchun bir odam yoki biror guruh o‘z siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa qarashlarini bir xil so‘zlar va iboralar, harakatlar bilan qaytaraveradi va shu yo‘l bilan ko‘pchilikning ma’qullashiga erishadi. Ayniqsa, saylov oldi tadbirlarida ana shu usul keng qo‘llaniladi. Shulardan kelib chiqib, ijtimoiy ustanovkalarni o‘zgartirishning usullari va psixologik vositalari orqali ham dunyoqarashni o‘zgartirishga erishish mumkin.

Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya alohida predmet sifatida XIX asming boshlarida vujudga kelgan bo‘lishiga qaramay, uning mustaqil fan sifatida rivojlanishi va qaror topish yo‘li ancha murakkab kechgandir. Mazkur ilmning rivojlanishiga turli dunyoqarashlar o‘rtasida olib borilgan doimiy ko‘rash katta ta’sir ko‘rsatgan. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining u yoki bu bosqichida qanday dunyoqarash ustuvorligiga qarab, tekshirishlar darajasi va sifati, olingan natijalarni kanday izohlash zarurligi belgilab berilgan.

O'tmishda ajdodlarimiz shaxsning psixologik qonuniyatlarini, muayyan ilmiy yo'nalishda o'rganmagan bo'lsalarda, biroq allomalarning qo'lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo'lishi, shaxs kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda shaxsni har tomonlama yaxlit va o'zaro o'zviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha shaxs tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, diniy, urf-odatlarini, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa shaxslar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, shaxs o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishining eng yetuk mahsuli bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqei, shaxs, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda shaxsparvarlik va shaxsshunoslik zaminida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik tamayllarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U shaxsni tabiatning bir qismi deb ta'kidlaydi..

Beruniy ta'lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh xususiyatlarini xisobga olish asosida qurilgan o'qitish tabiatga uyg'unligini uqtiradi. Beruniy pedagogik ijodida shaxs va uning baxt-saodati, ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan.

O'rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining doxiysi Abu Ali ibn Sino shaxs ruhiyati, tana va qalbning birligi, shaxs organizmining tuzilishi, undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari hozirga-qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi.

Yusuf Xos Hojib ijodining bosh masalalaridan biri - komil shaxsni tarbiyalashdir, adib o'z asarlarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan shaxsni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda u o'z tamayllarini izchil bayon etadi. «+utadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi») asari ta'lim va tarbiya-ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora tadbirlarini o'zida mujasamlashtirgan, axloq va odobga doir ma'naviy manbadir.

Alisher Navoiyning «Xazoyinul maoniy», «Mahbubul qulub» va boshqa shu singari asarlarida yetuk, barkamol shaxsning axloqi, ma'naviyati, o'zgalarga munosabati, iste'dodi va qobiliyati to'g'risida qimmatli mulohazalar yuritilgan, ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning qaror topishi uchun muhim ahamiyata ega ekani ta'kidlangan, shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffatligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr-mulohazalari alohida o'rin egallaydi.

Navoiy «Xamsa»sining har bir dostonida bukilmas iroda, kat'iyatlilik, itoat, shaxsparvarlik tuyg'ulari, ijodiy xayolot, shaxsning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. Shuningdek, bu borada Mahmud +oshg'ariy, Ulug'bek, Naqshbandiy, Ogahiy singari buyuk sharq mo'tafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga, o'qituvchi, tarbiyachining jamiyatdagi o'rni, axloq-odob, fe'l-atvor, oilaviy hayot, kishilararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon etilganligini ta'kidlash mumkin.

Iqtidorli bola – u yoki bu faoliyat turida boshqalardan o'zining yorqin, ochiq-oydin, ba'zida mislsiz yutuqlari bilan ajralib turadigan boladir. Tabiiyki, qanday yutuqlar haqida gap yuritilayotganligi haqida savol tug'ilishi mumkin. Maxsus adabiyotlarda iqtidorli bolalar bir nechta kategoriyalarga ajratiladi:

- ✓ maxsus intellekt testlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan bolalar (intellektual iqtidor);
- ✓ ijodiy qobiliyatlari yuqori bo'lgan bolalar (ijodiy iqtidor);
- ✓ biror bir sohada, faoliyat turida yutuqlarga erishgan bolalar (yosh musiqachilar, rassomlar, matematiklar, shaxmatistlar va boshq..), bu kategoriyadagi bolalarni ko'pincha talantli deyishadi;
- ✓ maktabda fanlarni yaxshi o'zlashtiradigan bolalar (akademik qobiliyat).

Intellektual iqtidor odatda maxsus testlar yordamida intellektual koeffitsient (IQ) ko'rinishda aniqlanadi. Zehn-zakovat saviyasi yuqori darajada rivojlangan kishilar faoliyatni o'ta nozik did, donolik bilan bajaradilar, fanda qilingan yangiliklari bilan nom qozonadilar. Ijodiy qobiliyatlarga nisbatan esa ikki xil, bir-birini inkor etmaydigan yondashuvlar bor. Birinchi yondashuvda ijodiylik qobiliyat deb tasavvur qilinsa, ikkinchi bir yondashuvda ijodiylik shaxs xislati sifatida qaraladi

va shu sababli har qanday yoshda, har qanday kasb-korda namoyon bo‘ladi. Akademik qobiliyatga ega bo‘lganlar esa ta’limda ko‘proq natijalarga erisha oladilar. Ular nazariy bilimlarni keng doirada, yengil o‘zlashtira oladilar, o‘ziga xos tafakkur va mustahkam xotiraga ega bo‘ladilar. Akademik qobiliyatlarni aniqlash uchun odatda, maxsus standartlashtirilgan bilim testlaridan foydalaniladi.

Iqtidorli bolalarni aniqlash davomiy jarayon bo‘lib, shaxsning rivojlanishini chuqur tahlil qilish bilan bog‘liq. Bunda qator psixologik-pedagogik talablar mavjud:

- ✓ bolaning o‘zini tutishi va faoliyatini kompleks baholash, bunda imkon qadar ko‘proq bolaning qobiliyatlari va turli axborot manbalaridan foydalanish;
- ✓ identifikatsiyalash (o‘xshatish) jarayonining davomiyligi (turli vaziyatlarda bolaning o‘zini tutishini kuzatish);
- ✓ bolaning qiziqish va layoqatlariga mos keladigan faoliyat doirasida o‘zini tutishini tahlil etish (maxsus tashkil etilgan o‘yin-mashg‘ulotlarga jalb etish);
- ✓ bolaning faoliyatiga ekspert baho berish (rasmlari, yozgan she’rlari, texnik modellari, matematik masalalarni yechish usullari.), bunda yuqori malakali sohaga oid ekspert-mutaxassislarni (matematiklar, filologlar, shaxmatist va muhandislar) taklif etish.
- ✓ har bir bolaning individualligini hisobga olgan va turli psixodiagnostik metodikalarni qo‘llagan holda tashxis qilishning ko‘p bosqichli va takroriy usullaridan foydalanish;
- ✓ tashxis ishlarini real hayot va faoliyat doirasida (kuzatish, suhbat, o‘qituvchilar va ota-onalarning ekspert bahosi) amalga oshirish. Iqtidorli bolalarni aniqlashda shu yosh davrdagi iqtidorning rivojlanishi darajasini, iqtidorning turli faoliyat doirasida amalga oshirish xususiyatlarini, bola rivojlanishining potensial imkoniyatlarini differensiatsiya (tabaqlashtirish) qilish talab etiladi.

2-bob bo'yicha xulosa.

Iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalashda ishtirok etuvchi soha ijtimoiy pedagogik omillardir. Iqtidor o'tmishdan ma'naviy meros bo'lib kelayotgan, hozirda jamiyat taraqqiyotiga ma'naviy ta'sir ko'rsatayotgan, ularning xulqi, aqliy kamoloti uchun ahamiyatli bo'lgan, har hil qatlamdagi ijtimoiy guruhlarining manfaat-maqсадlariga, ta'sir qiladigan moddiy va ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy va boshqa ta'sir manbalari majmuiga aytiladi.

BMIning ushbu bobida oilalarni o'rganish va oilada ma'naviy muhitni poklash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot jarayoni O'zbekistonda sog'lom avlodni shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlaridagi uyg'unlik tahlili orqali quyidagi hulosalar va tavsiyalar berilgan:

- sog'lom avlodni ma'nan voyaga yetkazish o'zbek davlatchiligi siyosatiga ham milliy-tarixiy, ham zamonaviy aspektdagi ustuvor yo'nalish bo'lib kirdi;

- sog'lom avlod ma'naviyatini shakllantirish oiladagi, jamiyatdagi ma'naviy-ahloqiy muhitni shakllantirish bilan bevosita bog'liq; jamiyatda sog'lom avlod ma'naviy tarbiyasi mohiyatini, ma'suliyatini his etish psixologiyasini shakllantirish, xususan, oilaning jamiyatdagi ijtimoiy pedagogik maqomini oshirishni talab etadi;

- yosh avlodni ma'nan sog'lom bo'lib o'sishlari va tarbiyalanishlari uchun oila, ta'lim-tarbiya muassasalari va davlat va nodavlat tashkilotlarining tarbiyaviy hamkorligi ijtimoiy-pedagogik asoslangan tizimga qurilishm lozim.

III-bob. Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash yo'llari bo'yicha tavsiyalar.

3.1. Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash bo'yicha tavsiyalar.

Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning shaxs kamolotini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar biridir. Quyidagi omillar boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtidorlik kamolotini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi:

1) ijtimoiy-g'oyaviy omillar: jamiyatda shakllangan ma'naviy-ahloqiy muhit; ijtimoiy munosabatlar mazmuni va unda yetakchi o'rin tutuvchi milliy g'oya asoslari; tarixiy meros; o'tmish saboqlaridan chiqarilgan xulosalar; xorijiy mamlakatlar tajribasi; ta'lim muassasalari faoliyatining mazmuni va yo'nalishlari; jamiyat a'zolarining turli soxalarda ko'rsatgan qahramonlik namunalari; ijtimoiy-g'oyaviy mazmundagi adabiyotlar;

2) iqtisodiy omillar: mamlakatning yer usti va yer osti boyliklari; jamiyat taraqqiyotining iqqisodiy yo'nalishi; erkin raqobatga asoslangan ishlab chiqarish munosabatlari; jamiyat fuqarolarining yangicha iqqisodiy tafakkurga ega bo'lishlari; aholida mehnat va ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatning qaror topganligi; ishlab chikarish jarayonida erishilgan yutuqlar;

3) madaniy omillar: milliy-madaniy meros namunalari; ilm-fan, texnik va texnologiya taraqqiyoti, bu yo'nalishda yaratilgan kashfiyotlar; ilm-fan, san'at va sportda erishilgan jahonshumul yutuqlar.

Boshlang'ich ta'lim faoliyatini taxlil etish ularda o'qitilayotgan bir kator ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan, "O'qish", "Odobnoma", "Ona tili", "Matematika" kabi fanlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida shaxs kamoloti elementlarini tarbiyalashda katta imkoniyatlarga egaligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijasida, ta'lim jarayonining quyidagi tamoyillar asosida tashkil etish maqsadga muvofiq deb topildi: tarix va zamonaviylik o'rtasidagi o'zaro dialektik birlik; milliy va umumshaxsiy qadriyatlar uyg'unligi; ijtimoiy-g'oyaviy dunyoqarashni shakllantirishning muayyan xususiyatga egaligi; ta'lim va tarbiya jarayoni birligi; ta'lim-tarbiyada shaxsparvarlik va shaxsiy

g'oyalar ustuvorligi; o'quvchi shaxsini hurmat qilish; o'quv-tarbiyaviy hamkorlikni yuzaga keltirish.

Tadqiqot ishida boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlashga doir tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi hamda ushbu metodikaning samaradorlik darajasi tadqiq etidik.

I. Iqtidorli o'quvchilarni o'rganish namunaviy dasturi

1. O'quvchi haqida bo'yicha umumiy ma'lumot.
2. Bola qaerda yashaydi.
3. Uning ota-onasi qaerda va kim bo'lib ishlaydi.
4. Oila a'zolari, oilasining madaniy darajasi.
5. Oilada o'zaro munosabat
6. Oilada bolaga tarbiya berish xarakteri.
7. Bolaning rejmi va maishiy ahvoli
8. Bolaning uy ishlariga ishtirok etishi.
9. Bolaning maktabdan tashqari do'stlari va tanishlari.
10. O'quvchi salomatligi ahvoli (vrach xulosasiga ko'ra)

II. O'quvchi kamolotining umumiy darajasi

1.Umumiy taraqqiyoti. Nutq madaniyati, bilimdonligi, muntazam kitob o'qib borishi, ko'lam va barqarorligi, kino, teatr muzey, stadion va shu kabilarga borib turishi.

2.O'quv mehnatiga munosabat. Darsga o'z vaqtida kelishi, darslarni o'z vaqtida bajarishi, Darsda faol ishtirok etishi. Qaysi fanlarni tez o'zlashtirishi, qaysi fanlardan qynalishi.

3.Jismoniy mehnatga munosabat. O'quvchi o'z-o'ziga xizmat qilishi, O'quvchi jamot ishlarini qanday bajarishi, Jismoniy mehnatda tashabbus va mustaqillik ko'rsatadmi.

4.O'quvchidagi tartib-intizom darajasi. "O'quvchilar uchun qoidalar" ni bilshi, va unga amal qilishi, O'quvchida madaniy xulq-atvor tarkib topishi, Darsda

uyushqoqligi. Kattalar bilan, do'stlar bilan munosabatda xushmuomalalik. Toza qiynishi.

5. O'quvchining qiziqish va mayillari. O'qishga qiziqish, Adabiyot, sa'nat, fan, texnika, sport sohasidagi qiziqishlar. Qiziqish doirasining kengligi va barqarorligi. O'quvchi qanday to'garaklarga qatshashi, qaysi kasbga qiziqadi.

III. O'quvchining ijtimoiy qiyofasi va jamotchilik ishlari.

1. Sinf, jamot ishlarida ishtiroki. Sinf jamot ishlarida va mahallada aktiv faol bo'lishi.
2. Jamot ishlarni bajarish xarakteri. Sofdilligi, boshlagan ishini oxiriga yetkazish malakasi. Boshqa o'quvchilarni ishga jalb etish malakasi. O'quvchining tashkilotchilik malakasi. Jamot ishida xurmatga erishishi.

IV. O'quvchi shaxsining asosiy xususiyatlari.

1. Ijtimoiy ong. Dunyoqarashi, mutaql fikirlashi, o'quvchi bajariyotgan o'quv va jamot ishlarining mohiyati.

2. O'quvchining ahloqiy xislatlari. Vatanga mehr-muhabbat hissi. O'z mehnati bilan maktabga va jamiyatga yordam ko'rsatishi. Ota-onalar va boshqa kishilarga munosabati, boshqa millat bolalari bilan do'stlashishi.

3. Xarakterning irodaviy xislatlari. Maqsadga intiluvchanligi, faolligi, qa'tiyligi, dadilligi, mustaqilligi, tashabuskorligi, sarishtaligi, o'zini tuta bilishi, o'z-o'zini nazorat qilishi, o'ziga ishonishi, tartib-intizomligi, jiddiyliigi, jasorati, o'ziga tanqidiy qarashi, kamtarligi.

4. O'quvchi mijozining va undagi psixik jarayonlarning xususiyatlari.

Nerv jarayonlari kuchi, mo'tadilligi va harakatchanligi, o'quvchining savollarga tez yoki sekin javob berishi, tez yoki sekin gapirishi, ishlashi. Uyg'onish jarayoni ustunmi yoki tormozlanish jarayoni ustunmi. Kirishimligi, Intelektual va emotsional jarayonlari: nutqi, e'tibori, xotirasi, ta'sirlanish xususiyati, his-tuyg'usi.

V. O'quvchini (iqtidorni) aniqlash asosida sinf rahbari qo'llaydigan pedagogik tadbirlar.

1. O'quvchi xulq-atvoridagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilish lozim?

2. O'quvchida qanday xislatlar bor, ularni qanday qilib rivojlantirish va takomillashtirish lozim?

1.O'quvchining shaxsiy xujatlari bilan tanishish.

2.O'tgan yilgi sinf jurnalini ko'rib chiqish.

3.Fan o'qituvchilari bilan suhbatlashish.

4.Maktab direktori va ilmiy bo'lim mudirining ahboroti.

5.Ota-onalar bilan suhbat.

6.O'quvchini pedagogik kuzatish. Tabiiy eksperiment, o'quvchilar bilan suhbatlashish, faoliyat natijalarni tahlil etish, o'quvchilar inshosi va boshqalar.

(E.G'oziev metodi)

1. Shaxs haqida umumiy tushuncha

F.I.Sh. _____

Jinsi _____ yoshi _____

O'qiydigan sinfi _____

Shaxsning yo'nalganligi.

<i>№</i>	<i>Fazilat nomi</i>	<i>Kuchsiz</i>	<i>O'rtacha</i>	<i>Kuchli</i>	<i>O'ta kuchli</i>
1	2	3	4	5	6
1	<i>Lymon e'tiqodli</i>	1	2	3	4
2	<i>Sobitqadamlilik</i>	1	2	3	4
3	<i>Hamjixatlilik</i>	1	2	3	4
4	<i>Beg'arazlik</i>	1	2	3	4
5	<i>Haqgo'ylik</i>	1	2	3	4
6	<i>Kamtarlik</i>	1	2	3	4
7	<i>Adolatparvarlik</i>	1	2	3	4
8	<i>Insonparvarlik</i>	1	2	3	4
9	<i>Fidoiylik</i>	1	2	3	4
10	<i>Vatanparvarlik</i>	1	2	3	4

2. O'quvchi shaxsning umumiy xususiyatlari.

<i>Nº</i>	<i>Fazilat nomi</i>	<i>Kuchsiz</i>	<i>O'rtacha</i>	<i>Kuchli</i>	<i>O'ta kuchli</i>
1	2	3	4	5	6
1	<i>Muloqotga moyil</i>	1	2	3	4
2	<i>Tashabbuskorlik</i>	1	2	3	4
3	<i>Harakatchanlik</i>	1	2	3	4
4	<i>Zukkolik</i>	1	2	3	4
5	<i>Sinchikovlik</i>	1	2	3	4
6	<i>Mehnatsevarlik</i>	1	2	3	4
7	<i>Qa'tiyatlik</i>	1	2	3	4
8	<i>Intiluvchanlik</i>	1	2	3	4
9	<i>Mustaqillik</i>	1	2	3	4
10	<i>O'zini boshqaruvchanlik</i>	1	2	3	4

3. O'quvchi shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

<i>Nº</i>	<i>Fazilat nomi</i>	<i>Kuchsiz</i>	<i>O'rtacha</i>	<i>Kuchli</i>	<i>O'ta kuchli</i>
1	2	3	4	5	6
1	<i>O'zgalar holatini tez anglaydi</i>	1	2	3	4
2	<i>O'zgalar ichki kechinmasini qabul qilishga moyil</i>	1	2	3	4
3	<i>O'zgalar hatti-harakatini tahlil qila oladi.</i>	1	2	3	4
4	<i>O'zini xayolan boshqaning o'rniga qo'ya oladi</i>	1	2	3	4
5	<i>O'zgalar shaxsiy xususiyatini inobatga oladi.</i>	1	2	3	4
6	<i>O'zaro munosabatni payqay oluvchi</i>	1	2	3	4
7	<i>Zehnli</i>	1	2	3	4
8	<i>Turli vaziyatda zukko</i>	1	2	3	4
9	<i>O'zgalararo muomalada shaxsiy fikriga egalik</i>	1	2	3	4
10	<i>Xulq, faoliyatda va muomalada odillik</i>	1	2	3	4

4. O'quvchi shaxsiga ijtimoiy ta'sir etuvchanlik

<i>Nº</i>	<i>Fazilat nomi</i>	<i>Kuchsiz</i>	<i>O'rtacha</i>	<i>Kuchli</i>	<i>O'ta kuchli</i>
1	2	3	4	5	6
1	<i>Mantiqiy dalillar orqali topqirlik</i>	1	2	3	4
2	<i>O'zining hissiyoti va emotsiyasi bilan o'zgalarga ta'sir etish</i>	1	2	3	4
3	<i>O'qishda muvaffaqiyatga erishishda o'ziga ishonish</i>	1	2	3	4
4	<i>O'ziga va boshqalarga nisbatan talabchan</i>	1	2	3	4
5	<i>Voqelikning muhim va nomuhim ijobiy hamda salbiy tomoniga xolisona qarash.</i>	1	2	3	4
6	<i>Tanqidiy fikirlovchi</i>	1	2	3	4
7	<i>O'zgalar fikriga beg'arazlik</i>	1	2	3	4
8	<i>Vaziyatni to'g'ri chamalash mukammalilik</i>	1	2	3	4
9	<i>Fikir almashishda nutqiy qobiliyatlilik</i>	1	2	3	4
10	<i>Milliy g'oya va milliy mafkuraga sadoqatlilik</i>	1	2	3	4

Bolalar ichki intilishlari va xarakterini o'rganish bo'yicha amalga oshirilishi mumkin bo'lgan psixologik so'rov mashqlari

1. «Ranglar»so'rov mashqlari .

Bolalarga uchta rang tanlash imkoni beriladi .

- Oq (xarakterda aql ustuvorligi)
- Qora (xarakterda jismoniy kuch ustuvorligi)
- Qizil (xarakterda xissiyotlar ustuvorligi)

2. «Idishlar» so'rov mashqlari.

Bolalarga uch xil idishda (sopol, chinni, billur) suv ichishi mumkinligi va uni tanlash imkoni beriladi.

- Sopol idish (muomilada sust mavqeda bo'lish.)
- Chinni idish (muomilada teng mavqeda bo'lish.)
- Billur idish (muomilada ustun mavqeda bo'lish.)

3. «Yopiq eshik» so'rovi mashqlari.

Bolalarga qulf eshikli uy ko'rsatiladi va ulardan shu eshik ortida nima ko'rishlari suraladi. Ularga shu eshikning kaliti faqat ularda borligi uqtiriladi. Bolalarning nima javob qilishi ularning kunglida nima borligi yoki yuqligini bilishga imkon beradi.

4. «Cho'milish» so'rov mashqlari.

Bolaga uch xil havzadagi suvda chumilishi mumkinligi aytiladi. Bu hovuz, bu oqar ariq, bu fantandir. Ular hovuz tanlashsa bola xarakterining doimiyligi, oqar ariq bir maromda o'zgarishni, fontan tez-tez o'zgarib turishdan dalolat beradi hamda uning istak intilishlari xam shunga mos tarzda o'zgarib boradi va hakoza.

Yuqorida keltirib o'tilgan metodik tavsiyalar va psixologik metodlar orqali ham o'quvchilarning iqtidorni aniqlash lozim. Albatta bunday ishlarni amalga oshirishda o'qituvchidan kasbiy bilim va mahoratni talab qiladi. Tadqiqot ishi yuzasidan quyidagi xulosalarni keltirib o'tishimiz mumkin.

UMUMIY XULOSA

Mustaqillik yillarida Respublika uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichlaridan biri boshlang'ich ta'limda o'quv-tarbiya ishlarining bugungi kun talablari darajasida tashkil etish davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biri ekanligiga alohida urg'u berilgan. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, ta'lim jarayoni zamonaviy o'quv qurollari va texnik vositalar bilan qurollantirildi hamda malakali mutaxassislar bilan ta'minlandi. Biroq, o'quvchilar bilan tashkil etilgan suhbat, anketa hamda test so'rovlarining natijalari ularda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash masalasi yetarlicha shakllanmaganligini ko'rsatdi.

O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda o'quvchilarda hosil bo'lgan iqtidor va uning elementlari to'g'risidagi nazariy bilimlar asosida o'quvchilarda ularni jamiyat va xalq manfaatlari yo'lida mehnat qilish, mustaqillikni mustahkamlashga undovchi ma'naviy-ahlokiy sifatlarni amaliy jihatdan tarbiyalashga imkon beruvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni izchil, tizimli tashkil etish maqsadga muvofiqligi ma'lum bo'ldi.

Ta'lim jarayoni va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni uyushtirishda tarixiy meros, milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari, oila, mahalla, ta'lim muassasalari, shuningdek, ijtimoiy tashkilotlarning imkoniyatlari, ommaviy axborot vositalari kabi omillar ham kasb-hunar kolleji o'quvchilarida shaxs kamolotini shakllantirishga yordam berdi.

Pedagogik yo'nalishda amalga oshiriluvchi tadqiqotlarning samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega shartlardan biri - bu maxsus metodikani ishlab chiqishdir. Tajriba-sinov ishlarining maxsus metodika asosida tashkil etish natijasida ularning samaradorligi ta'minlanibgina qolmay, tadqiqotning muvaffaqiyatli kechishiga ham zamin yaratdi. Quyidagi xulosalarga keldik.

1. Boshlang'ich ta'lim amaliyotida iqtidorli o'quvchilarni aniqlashga alohida e'tibor qaratish, o'quv ishlari hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash.

2. Boshlang'ich ta'lim hamda oila, mahalla, keng jamoatchilik o'rtasida mustahkam hamkorlikni qaror toptirish asosida o'quvchilarda iqtidor qobiliyatini rivojlantirish.

3. Boshlang'ich ta'lim qoshida "Iqtidorli o'quvchi" nomli klub faoliyatini yo'lga qo'yish.

4. bolalarning umumiy iqtidorliklarini aniqlash;

5. Sinf rahbari daftarchasida(kundaligida) fan o'qituvchilari, tugarak boshliqlari, ota-onalar tarafidan o'tkazilgan tashxis natijalari iqtidorlik ning sohalari buyicha ma'lumotlar tablitsa shaklida rasmiylashtirilishi kerak;

6. Sinfda iqtidorli bolalar qobiliyatlarini namoyon etishga imkoniyat yaratgan holda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T. Ma'naviyat 2008 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. -T.:O'zbekiston,1992 y
62 b.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. -T.: O'zbekiston,
1992 y. -79 b.
4. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman.
Fidokor 2000.
5. Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.:
O'zbekiston, 1995 y. -269 b.
6. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.: O'zbekiston, 1996 y. -380
b.

7. Karimov. I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1 jild. -T.: O‘zbekiston nashriyoti, 1996 y.
8. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. 4 jild. -T.: O‘zbekiston nashriyoti, 1996 y.
9. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasidir. -T.: O‘zbekiston, 1996 y. -387 b.
10. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, baraqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O‘zbekiston, 1997 y. -326 b.
11. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati. 1997 y. – 63 b.
12. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. 5 jild. -T.: O‘zbekiston nashriyoti, 1997 y.
13. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin». Tafakkur jurnali bosh muharriri savollariga javoblari. 1998 y. 2 s.
14. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Muloqot jurnali, 1998 y. 5 s.
15. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yulidan 6- jild. -T.: O‘zbekiston nashriyoti, 1998 y.
16. Yusupov E. “Shaxs kamolotining ma’naviy asoslari” T. “Universitet” 1998 y.
17. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. O‘zbekiston. 2000 y. 80 bet.
18. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. T. O‘qituvchi. 1992 y 160 bet.
19. Maxmudova M. Xalq pedagogikasi va oila tarbiyasi. Samarqand. 2003 y. 174 bet.
20. Nishonova S. Komil shaxs tarbiyasi. T. Istiqlol. 2003 y. 224 bet.
21. Fitrat Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Mas’ul muxarrir: D.Alimova tarjimas. Sh.Voxidov. T. Ma’naviyat. 1998 y 112 bet.
22. Qurbonov M. Maktab ma’naviyati va milliy tarbiya. T. FAN. 1995 y 118 bet.
23. Inomova M.O. Farzand – nihol, ota – ona – bog‘bon. T. O‘qituvchi. 1993 y. 54 bet.

24. Mahkamov U.I. O'quvchilarning ahloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. T.FAN. 1995 y. 200 bet.
25. Mavlonova R. To'raev O. Va boshqalar. Pedagogika. T. O'qituvchi. 2002 y. 387 bet.
26. Davletshin M.G., Abduraxmonov F.R. Qadimgi Sharq mamlakatlarida psixologik fikr taraqqiyoti. – T.: 1995. – 26s.
27. Jumaev R. Z., Ubaydullaev U.A., Xo'janov B. A. Konfliktologiya asoslari. (o'quv qo'llanma) T. "Akademiya" nashryoti. 2000y.
28. Mavlonova R.A., N. Vohidova., N. Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. –T.: "Fan va texnologiya" nashryoti 2010 yil.
29. M. Maxsudova. Muloqot psixologiyasi .T."Turon-iqbol" nashriyoti. 2006 y
30. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi; Umum ta'lim maktablari uchun. – T.: O'qituvchi, 1996. – 192 b.